Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

# Postda
# На посту

O‘zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

2023-yil
16-mart
payshanba

№ 11 (4601)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

# «ОВУЛ ТАШВИШИ – МЕНИНГ ТАШВИШИМ»

**«Қизилқум жавоҳири» дея ном олган Учқудуқ тумани Навоий вилояти марказидан қарийб 350 км узоқликда жойлашган.**

Профилактика инспектори, капитан Бобур Ибрагимов вилоятнинг чекка ҳудуди бўлган ушбу тумандаги «Кўкаёз» овул фуқаролар йиғини аҳолисининг тинчлик-осойишталигини таъминлаш учун масъул.

– Овул аҳлининг ташвишини ўз ташвишим деб биламан, – дейди қаҳрамонимиз. – Шунинг учун бўлса керак, улар мендан муаммоларини яширишмайди, бирор ишни бошлаётганда йўл-йўриқ сўрашади.

5



## ЧИНАКАМ ХАЛҚ КОНСТИТУЦИЯСИ



Янгиланаётган Конституция Янги Ўзбекистонни қуриш ғояси атрофида бутун жамиятимизни жипслаштириши, унда барча қатлам манфаатлари инобатга олинганлиги, лойиҳани ишлаб чиқишда кенг жамоатчилик, сиёсий партиялар, жамоат ташкилотлари, экспертлик ва илмий доиралар вакиллари, зиёлилар фаол иштирок этганлиги билан муҳим аҳамият касб этади.

8

*Ишчи гуруҳ фаолиятидан*

# ЭЛ ДАРДИГА ДАРМОН БЎЛИБ...

**Ўтган ҳафтада Ички ишлар вазири, генерал-лейтенант Пўлат Бобожонов бошчилигидаги идоралараро ишчи гуруҳ Жиззах вилоятида бўлиб, жойларда ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, жиноятчиликка қарши курашиш, янги иш ўринларини яратиш, ижтимоий инфратузилмалар созлигини таъминлаш, коммунал хизмат кўрсатиш сифатини яхшилаш борасида амалга оширилаётган ишлар самарадорлигини ўрганди.**




Ўрганишлар давомида ишчи гуруҳ ташаббуси билан аҳолининг ижтимоий-иқтисодий муаммоларини ҳал қилишга қаратилган бир қатор тадбирларга қўл урилди. Хусусан, 6435 та хонадонга суюлтирилган газ баллонлари етказиб берилди. Олис маҳаллаларда 56 та ярмарка ташкил этилиб, 492 тоннадан зиёд озиқ-овқат маҳсулотлари арзонлаштирилган нархларда сотилди.

Шунингдек, ўтказилган сайёр қабуллар давомида келиб тушган 398 та мурожаатнинг 198 таси жойида ўз ечимини топди, 163 таси бўйича ҳуқуқий тушунтиришлар берилди. Мурожаатларни ўрганиш натижасида 14 та тадбиркорлик фаолияти қайта тикланди, олис ҳудудлардаги 32 та маҳаллада 400 та сайёр давлат хизматлари кўрсатилди.

**Ишсизликка барҳам бериш амалиёти танқидий ўрганилиб, қўшимча ресурсларни жалб этиш ҳисобига 125 нафар фуқаро доимий ишга жойлаштирилди. 361 нафар киши ўзини ўзи банд қилиш орқали доимий даромад манбаига эга бўлиши таъминланди. 3615 нафар фуқаро тиббий кўрикдан ўтказилиб, 63 нафар ёлғиз яшовчи карияга дори-дармон кўринишидаги ижтимоий ва моддий ёрдам кўрсатилди.**

Аҳолининг ижтимоий ва маиший муаммоларига ечим топиш мақсадида 212 нафар алимент тўловчи қарздор иш билан таъминланиб, 2,2 миллиард сўм миқдорида алимент пули ундирилди, алиментни тўлашдан бўйин товлаган 13 нафар қарздор маъмурий жавобгарликка тортилди. Низоли оилаларнинг 427 та маиший муаммоси бартараф этилиб, 78 нафар хотин-қизга ҳимоя ордери расмийлаштирилди.

Қолаверса, Ички ишлар вазирлигининг соҳавий хизматлари вакиллари билан ҳамкорликда тезкор қидирув тадбирлари, рейдлар, жиноятчиликка қарши тарғибот тадбирлари ўтказилди. Бундан ташқари, таълим муассасалари ва мурувват уйларига бадиий адабиётлар топширилиб, эҳтиёжмандларга кўмак кўрсатилди.

Ички ишлар вазири Мирзачўл туманидаги кийим-кечак ишлаб чиқаришга ихтисослашган «Мирзачўл агропром» МЧЖ фаолияти билан танишди. Мулоқот давомида корхонада ҳозир юз киши меҳнат қилаётгани айтилиб, келгусида иш ўринлари сонини 240 тага етказиш кўзда тутилаётгани билдирилди.

Вазир Дўстлик тумани «Саноатчилар» маҳалласида барпо этилаётган кичик саноат ҳудудида ҳам бўлди. Бу ерда 40 миллиард сўм маблағ эвазига 152 та тадбиркорлик лойиҳасини ҳаётга татбиқ этиш кўзда тутилган. Ишбилармонлар билан учрашувда мазкур тадбиркорлик субъектлари апрель ойида иш бошлаши, натижада 500 нафар кишининг бандлиги таъминланиши, йилига 72 миллиард сўмлик маҳсулотлар тайёрланиши маълум қилинди.

**Ишчи гуруҳ тумандаги 1-сонли умумтаълим мактабида ташкил этилган мини мономарказда ҳам бўлди. Бу ерда таълим муассасасининг 50 нафар ўқувчисига дурадгорлик, пазандалик, тикувчилик, сартарошлик касблари ўргатиляпти. Қолаверса, 7 сотихлик иссиқхона барпо қилинган, биогумус тайёрлаш йўлга қўйилган.**

Идоралараро ишчи гуруҳ аъзолари янги қурилган вилоят ИИБ ЙҲХБ биносининг очилиш маросимида ҳам иштирок этди. Айтиш жоизки, иншоотда соҳавий хизмат ходимлари самарали фаолият кўрсатиши учун қулай шароитлар яратилган. Фуқароларни қабул қилиш хонаси, саф майдони, футбол майдончаси, спорт зали, хотира бурчаги, ошхона, хизмат автомашиналари сақлаш жойи юзага келтирилган. Шунингдек, вилоят ИИБ ЙҲХБ Рўйхатдан ўтказиш ва имтиҳон бўлими, ЙПХ батальони, Жиззах шаҳар ИИБ ЙҲХБ бўлими биноларининг очилиш маросими ҳам бўлиб ўтди. Мазкур объектларда яратилган шароитлар тадбир қатнашчилари томонидан ижобий баҳоланди.

Вилоят ИИБ ЖХХ Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бошқармасида эса ўқувчилар ўртасида жиноят ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш, вояга етмаганлар билан ўз вақтида, манзилли профилактик тадбирларни ўтказиш имконини берувчи «E-voyaga yetmagan» дастури тақдимоти ўтказилиб, ҳушёрхоналарга олиб келинганларнинг электрон ҳисобини юритиш борасидаги тадбирлар ҳақида маълумот берилди.



Идоралараро ишчи гуруҳнинг Жиззах вилоятидаги фаолияти якунида ишчи гуруҳ раҳбари Ички ишлар вазири, генерал-лейтенант Пўлат Бобожонов, вилоят ҳокими Эргаш Салиев, Ички ишлар вазирлигининг соҳавий хизматлари, Миллий гвардия, Адлия вазирлиги, Солиқ қўмитаси, Бош прокуратура ва унинг тузилмалари раҳбарлари, вилоят, шаҳар ва туманлар сектор бошлиқлари ҳамда бошқа бир қатор мутасадди идоралар вакиллари иштирокида ўрганиш натижалари муҳокама этилди. Унда ишчи гуруҳ томонидан аниқланган муаммолар ечимига жиддий эътибор қаратилди. Маҳаллаларда аҳолини энергия ресурслари билан таъминлаш, фуқароларнинг мурожаатларини ўрганиш ва ижобий ҳал этиш, ҳуқуқий тарғибот ва давлат хизматларини сайёр кўрсатиш, аҳоли бандлиги ва озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш соҳасидаги камчиликларни бартараф қилиш чоралари белгиланди.

**Алижон АБДУСАТТОРОВ,**
**«Postda» мухбири.**
*Жиззах вилояти.*

*Халқаро ҳамкорлик*

# БМТ кенгашида




Швейцариянинг Женева шаҳрида БМТ Инсон ҳуқуқлари бўйича кенгашининг 52-сессияси бўлиб ўтди.

Унда Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси Спикерининг биринчи ўринбосари Акмал Саидов, Ички ишлар вазири ўринбосари – Тергов департаменти бошлиғи, полковник Яхёжон Абдулхаков иштирок этди.

Сессияда БМТ Бош котиби Антониу Гутерриш сўз олиб, ХХ аср ва XXI асрнинг бошларида инсоният тараққиёти йўлида эришилган натижалар, айни вақтда ер юзида зўравонлик, низолар ва инсон ҳуқуқларининг бузилиши каби офатлардан қочишга мажбур бўлган одамлар сони 100 миллион кишига етганлиги, шу муносабат билан қочқинлар ва мигрантларнинг ҳуқуқлари ҳеч бир камситишларсиз таъминланиши ва бошқа долзарб масалалар юзасидан фикр билдирди.

Сессия доирасида БМТ Махсус маърузачиларининг 80 та ҳисоботи тингланиб, муҳокама этилди. Жумладан, болалар ва ногиронлиги бўлган шахслар ҳамда озиқ-овқат ва тараққиёт ҳуқуқларига бағишланган мажлислар ўтказилди. Шу билан бирга, ирқий камситишнинг барча турларига барҳам бериш юзасидан мунозаралар бўлиб ўтди.

**Ўз мухбиримиз.**

*Юксак мукофот соҳиблари*

# БАХТИ ТЎКИСЛИГИДАН КЎНГЛИМ ХОТИРЖАМ

## – дейди қаҳрамонимизнинг онаси Хадича ая



**Бугун аёл нафақат она, балки у тадбиркор, сиёсатчи, ходима...**

**Янги Ўзбекистон аёлининг исмига ярашиб турган бу сифатларнинг саноғига бармоғимиз камлик қилади. Унинг жисму жонига сингиб кетган меҳр-муҳаббат, гўзаллик, нафосат, фидойилик, ташаббускорлик, шижоат ва масъулиятдан нафақат унинг ўзи, балки минглаб қалблар чароғон, кўнгиллар масрур. Самарқанд вилояти Каттақўрғон шаҳар Ички ишлар бўлимининг ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўлинмаси хотин-қизлар масалалари бўйича катта инспектори, подполковник Замира Аҳатова ана шундай аёллардан бири, десак, асло муболаға эмас.**

– Шу кунгача давлатимизнинг юксак мукофотларига сазовор бўлган хотин-қизларга ҳавас қилганман. Халқаро хотин-қизлар кунига бағишланган тантанали тадбирда шахсан Юртбошимиздан «Содиқ хизматлари учун» медалини қабул қилиб олганимда, ўзим ҳам шундай бахтга, эътиборга мушарраф бўлганимдаги ҳаяжонларимни таърифлаш жуда мушкул, – дейди Замира Аҳатова. – Аммо шу дамларда дилимдан озми-кўпми хизматимиз Президентимизгача етиб боряптими, демак, бу йўлдан оғишмай давом этишимиз керак, деган ўй ўтди.

Болаликдан тарих, ҳуқуқ фанларига қизиққан Замира учун отаси – узоқ йиллар ички ишлар органларининг турли соҳавий хизматларида самарали фаолият юритган, истеъфодаги подполковник Рустам Аҳатов қаҳрамон эди. Отаси ҳам ундаги дадиллик ва интилишни кўриб, ўзига муносиб издош бўлишига кўзи етди ва қўллаб-қувватлади. Самарқанд давлат университетининг ҳуқуқшунослик факультетини тамомлаган қаҳрамонимиз илк хизматини ЖИЭББ 7-сонли тергов ҳибсхонасида ҳуқуқшуносдан бошлади. У ўз бахтини ҳам шу ерда учратди. Аниқроғи, айни пайтда истеъфодаги сержант Одилжон Илясов билан оила қурди. Улар хизматда бир-бирига қўшқанот бўлишди. Тотув оилада Шоҳжаҳон, Шаҳина, Зариналарни тарбиялашмоқда. Шоҳжаҳон ИИВ Самарқанд академик лицейи ўқувчиси.

– Криминоген вазият оғир ҳудудда фаолият юритаман, – дейди катта инспектор. – Айниқса, бозор-ўчар ва бошқа хизматлар учун Каттақўрғон шаҳрига тўртта тумандан кириб, чиқадиган аҳоли кўп. Шу боис фаолиятимизни бошқа соҳавий хизмат ходимлари билан ҳамжиҳатликда олиб бориш тақозо этади. Хотин-қизлар, оила доирасидаги турли муаммоли ҳолатларда ҳам тегишли ташкилот ва идоралар билан бамаслаҳат ишлаймиз. Аёл, она сифатида муаммолар гирдобида қолган хотин-қизларга нажот йўлини ахтариб, улар сингари юрагим изтиробга тўлган пайтлар ҳам бўлади, албатта. Профилактик суҳбатлардан кейин ўзига нисбатан ишончи ортиб, ҳаётини яхши томонга ўзгартиришга ҳаракат қилаётганларни кузатиб, кўнглим ёришади.

**Келинг, яхшиси, бир ҳолатни мисол келтирай: бундан бир муддат аввал Озода исмли аёл (исмлар ўзгартирилди) қизи Райҳонанинг уйидан унга аччиқ қилиб чиқиб кетаётганини айтиб, ёрдам сўраб мурожаат қилди. Балоғат ёшидаги Райҳона билан боғлиқ вазият анча жиддий, она ниҳоятда ташвишда эди. Қиз билан суҳбатлашдим. У онасининг иккинчи турмуш қурганини хушламаслиги ва ўгай ота билан яшашни хоҳламаслиги, уни ёмон кўришини яширмади. Шундан кейин оиладаги муҳитни ҳам ўргандим, ҳаммаси яхши. Муаммо Райҳонадаги балоғат даврининг бекарор кайфияти билан боғлиқдек кўринди. Чунки ўгай ота ҳам, онаси ҳам у билан рисоладагидек яшаш тарафдори.**

У билан кетма-кет профилактик суҳбатлар олиб бордик, махсус мактабга юбордик. Орадан уч ой ўтиб, менга қўнғироқ қилди ва «Онамни соғиндим, айтинг, мени кечирсин, уларни яхши кўраман», дея йиғлаб юборди. Ҳозир у ота-онасининг бағрида, ўз уйида яшайди. Озода опа билан тез-тез қўнғироқлашиб турамиз, жуда хурсанд. Райҳона яқинда шашка бўйича мусобақада ғолиб бўлибди. Хизмат жараёнида шунга ўхшаш ва бошқа ҳолатларни бевосита гувоҳи сифатида таҳлил этиб, келган хулосам шуки, инсон у эркак киши ё аёл бўлсин, аввало, уларда ҳаётини изга солишда ишонч уйғотиш муҳимдир. Мен хизмат жараёнида бу ақидага доим амал қиламан. Ва бу аксарият ҳолларда ўзини оқлайди.

– Ҳар бир она фарзандининг муваффақиятларидан фахр-ифтихор туяди, – дейди Хадича ая. – Мен ҳам қизимнинг тақдирланганини эшитиб, ниҳоятда хурсанд бўлдим. Унинг қўлга киритаётган ютуқларида ўзининг тиришқоқлиги ва ҳаракатчанлиги билан бир қаторда, қайнонаси Матлубахоннинг ҳам алоҳида ҳиссаси бор. Чунки доим қудамдан «Замирахоннинг иши бироз қийин, унга қарашиб туриш керак», деган сўзларни эшитганимда, меҳр-оқибатли оилада бахти тўкислигидан кўнглим хотиржам бўлади.

**Вақт бир жойда тўхтаб турмайди. Балки ҳар сония инсоннинг ҳаётга бўлган қарашларини кенгайтириб, фикрларини чархлаб боради. Ички ишлар органларидек масъулиятли соҳада қарийб йигирма йилдан буён хизмат қилиб келаётган қаҳрамонимиз ҳам бугунги мартабага эришгунича қанча пасту баландликлардан ўтган. Шуниси ҳақиқатки, у қалбидаги эзгу мақсадларни шахту-шижоати билан намоён этиб, касбига садоқат билан хизмат қилмоқда.**

**Гулноза ТУРҒУНБОЕВА,**
**«Postda» мухбири.**
*Самарқанд вилояти.*

*Правовая пропаганда*

# ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПРАВ И СВОБОД

**В нашей стране интересы человека являются высшей ценностью. Примером тому – совершенствование уголовно-исполнительного законодательства, направленное на обеспечение прав, улучшение условий содержания осужденных в учреждениях исполнения наказания и др.**



В целях усиления гарантий прав и свобод осужденных Законом «О внесении изменений и дополнений в некоторые законодательные акты Республики Узбекистан, направленные на надежную защиту прав и законных интересов осужденных» от 15 февраля 2023 года внесены соответствующие изменения и дополнения в Закон «О государственном пенсионном обеспечении граждан».

В связи с этим в учреждениях, подведомственных региональному координационному центру шестой региональной зоны Департамента исполнения наказания при МВД Республики Узбекистан, проведены тренинги с целью освещения сути внесенных в законодательство изменений, а также мер, предусмотренных для их реализации.

Такие мероприятия были организованы группой юридического обеспечения регионального координационного центра шестой региональной зоны ДИН и Управлением юстиции Бухарской области в колониях по исполнению наказания № 1, 17, 20.

Кроме того, отдельные мероприятия были проведены с участием ответственных сотрудников учреждений уголовно-исполнительной системы, на которых обсуждались механизмы реализации требований Закона. Основная цель – повышение эффективности работы, уровня правовых знаний сотрудников.

Участникам мероприятий доведена суть статьи 96 Уголовно-исполнительного кодекса Республики Узбекистан об уплате социального налога и пенсионном обеспечении осужденных. Говорилось о том, что в общий трудовой стаж осужденных к лишению свободы засчитывается период уплаты социального налога. Администрация учреждения в период отбывания наказания осужденным справку об уплате налогов:

направляет в электронном виде в районный (городской) отдел внебюджетного Пенсионного фонда при Министерстве финансов Республики Узбекистан не менее чем за три рабочих дня до освобождения из учреждения по исполнению наказания;

выдает осужденному в бумажном виде при освобождении из учреждения по исполнению наказания.

В ходе тренинга были даны разъяснения и по иным вопросам пенсионного обеспечения лиц, отбывающих наказание в учреждениях системы Департамента исполнения наказаний.

**Шухрат РАДЖАБОВ,**
**подполковник.**
*Бухарская область.*

■ Джизакская область

# ПОВЫШАТЬ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

**За истекший период текущего года в 23 из 24 махаллей Зарбдарского района Джизакской области не было совершено ни одного преступления. Во многом это результат работы сотрудников подразделения профилактики правонарушений районного ОВД. В частности, профилактические мероприятия осуществляются с лицами, склонными к совершению правонарушений, с ранее осужденными, с теми, кто состоит на учете группы пробации.**



Совместно с сотрудниками отраслевых служб осуществляется ночное патрулирование общественных мест. В рамках профилактического мероприятия «Безопасная территория» проводятся подомовые обходы, выявляются и решаются проблемы, волнующие население. Эффективно действует в этом направлении рабочая группа третьего сектора.

Зарбдарские инспекторы профилактики составили 322 административных протокола в отношении правонарушителей. Пять лиц без определенного места жительства направлены в реабилитационные центры, 70 человек взяты на профилактический учет.

Не остаются без внимания и вопросы урегулирования конфликтов в семьях. Строго контролируется посещение учащимися образовательных учреждений. В центре внимания трудоустройство лиц, вернувшихся из мест лишения свободы. Пресекается незаконная торговля алкоголем. Оперативное рассмотрение обращений граждан и сообщений о правонарушениях положительно сказывается на результативности деятельности.

Сотрудники подразделения стремятся повысить эффективность работы по обеспечению общественной безопасности, предупреждению правонарушений. При этом они опираются прежде всего на общественность, активистов махаллей.

**Алижон АБДУСАТТОРОВ,**
**корреспондент «Postda».**

*Профилактика инспекторининг бир куни*

# «ОВУЛ ТАШВИШИ – МЕНИНГ ТАШВИШИМ»

*(Давоми. Бошланиши 1-бетда).*

У эрталабдан хизмат ҳудудини айланиб, фуқаролар билан ҳол-аҳвол сўрашди, суҳбатлашди. Хонадонлар бир-биридан узоқда жойлашгани сабабли, бунга анча вақти кетди. Сўнг туман ИИБ Навбатчилик қисмига қўнғироқ қилиб, маъмурий ҳудудда осойишталик эканлиги ҳақида ахборот берди.

Кейинги манзили 14-умумтаълим мактаби бўлди. Мактабда синф раҳбарлари билан ўтказилган йиғилишда қатнашди. Йиғилиш якунида бесабаб дарс қолдирган ўқувчилар ҳақида маълумот олди. Яна дарсга келмаган 9-синф ўқувчиси А. Л.нинг оилавий аҳволини яхши билгани боис, унинг уйига борди. Ҳовли юмушларини бажариб юрган бола инспекторни кўриб хижолат тортиб ерга қаради. Капитан «Отанг уйдами?» деб сўради. Аммо боланинг отаси ҳозир ғирт маст бўлиб, шу топда у билан гаплашиш фойдасиз эди. У спиртли ичимлик истеъмол қилиб келган куни хотинини дўппослайди. Бола эса онасини ҳимоя қилиш учун ўқишдан қолади.



Бу гал ҳам шундай бўлган эди. Капитан Бобур Ибрагимов туман ИИБ ҲПБ хотин-қизлар масаласи бўйича масъул ходими ва овулдаги хотин-қизлар фаоли билан ушбу масалани муҳокама қилди. Уларга вазият жиддий тус олиб бораётганини айтиб, А.Л. нинг онасига ҳимоя ордери беришни таклиф этди. Улар бу таклифни маъқуллашди. Сўнг хизмат хонасига бориб, ҳимоя ордерини расмийлаштирди.

Тушдан кейин овулдаги уюшмаган ёшлар ўртасида ташкил этилган футбол мусобақасида қатнашди. Ўйин тугагач, уларни ижтимоий тармоқлардаги фирибгарликлардан огоҳлантириб, нотаниш одамларга ишонмасликни тайинлади. Бир нечта ҳаётий мисоллар келтириб, бунинг салбий оқибатларини тушунтирди.

Шундан сўнг яна ҳалиги хонадонга борди. Уй эгасининг кайфи анча тарқаган эди. У билан очиқчасига гаплашди. Ичкиликбозлиги фарзандларининг таълим-тарбиясига салбий таъсир ўтказаётганини айтди. Шунингдек, хотинига берилган ҳимоя ордерининг мазмун-моҳияти, талабларини тушунтирди. Оила бошлиғи энди бу ҳол қайтарилмаслигига ваъда берди.

Лавҳамиз қаҳрамони қуёш барханлар ортига ботаётган маҳалда уйига қайтди. Бобуржон шу куни кечки овқатни оила аъзолари билан бир дастурхон атрофида ўтириб тановул қилди. Бундан ҳамма мамнун бўлди. Негаки, у ҳар доим ҳам бу вақтда уйда бўлолмасди.

Бобур Ибрагимов қарийб 10 йилдан буён ички ишлар органларида фаолият кўрсатади. Ҳозир унинг хизмат ҳудуди бўлган «Кўкаёз» овулида ўзбек, рус, қозоқ, қорақалпоқ миллатларига мансуб 500 нафарга яқин аҳоли истиқомат қилади. Улар орасида корхона ва ташкилотларда ишлайдиганлар ҳам, чорвачилик билан шуғулланаётганлари ҳам бор.

Биз сизга Учқудуқ тумани ИИБ ЖХХ ҲПБ профилактика инспектори, капитан Бобур Ибрагимовнинг одатдаги иш кунларидан бири ҳақида ҳикоя қилдик. Эртаси куни уни бир-бирига ўхшамаган бошқа муаммолар, турфа инсонлар билан учрашувлар кутаётгани шубҳасиз...

**Маҳлиё ХОЛОВА,**
**ўз мухбиримиз.**
*Навоий вилояти.*

## «ЯШИЛ МАКОН» — АМАЛДА



**ИИВ Малака ошириш институти ходим ва тингловчилари ўқув машғулотларидан сўнг пойтахтимизнинг Яшнобод тумани ҳудудида ўтказилаётган ободонлаштириш ва кўкаламзорлаштириш ишларида муносиб иштирок этишмоқда.**



Жумладан, гузар ва хиёбонлар, болалар майдончаларини тартибга келтириш, тураржой мавзелари ва маҳаллаларда гул, мевали ва манзарали дарахт кўчатларини экиш ишлари жадаллик билан олиб борилаяпти.

**Ўз мухбиримиз.**

*Инсон қадри учун*

# КАСБИЙ МАҲОРАТ ВА ОДАМЛАРГА ҲУРМАТ

**Андижон шаҳар ИИОФМБ 4-ИИБ Миграция ва фуқароликни расмийлаштириш гуруҳи ходимлари ногиронлиги бўлган шахслар ва кексалар яшайдиган «Мурувват» уйида бўлишди. Улар совға-саломдан ташқари, ўзлари билан маълумотларни йиғиш ва идентификация карталарини расмийлаштириш учун махсус мобиль ускуналарни ҳам олиб боришди. Шу куни «Мурувват» уйида истиқомат қилувчиларнинг 80 нафари идентификация карталарига эга бўлди.**



– Миграция ва фуқароликни расмийлаштириш гуруҳи хизмат кўрсатадиган ҳудудга 18 та маҳалла киради ва уларда юз мингдан ортиқ фуқаро яшайди, – дейди гуруҳ бошлиғи, катта сержант Абдунаби Аҳмедов. – Жорий йил бошидан буён 1997 киши идентификация карталарига 3247 фуқаро хорижга чиқиш паспортига эга бўлди. Маҳалла фуқаролар йиғинлари томонидан шакллантирилган мустақил ҳаракатланиш имкониятига эга бўлмаган фуқаролар рўйхати асосида ходимларимиз ногиронлиги бўлган шахслар ва қарияларнинг хонадонларига бориб, идентификация карталарини расмийлаштиради.

Миграция ва фуқароликни расмийлаштириш гуруҳи ходимлари самарали фаолият олиб бораётгани туфайли инспектор, катта сержант Шохруҳ Хўжамов ва паспортчи, сафдор Гули Каримова хонасига кириш учун навбатлар юзага келмайди. Маълумотларни тўплаш ва зарур ҳужжатларни расмийлаштириш тез ва аниқ амалга оширилади.

– Бугун эрталаб идентификация карталарини олиш учун келдик, – дейди «Пахтакор» маҳалласида истиқомат қилувчи пенсионер В. Зайнабиддинова. – Бизни дарҳол расмга туширишди, маълумотларни ҳам тезкорлик билан жамлашди. Тушликдан кейин эса идентификация карталарини қўлимизга олдик.

– Бизнес ишлари билан чет элга чиқишимга тўғри келиб қолди, – дейди тадбиркор Рустамжон Абдуллаев. – Ўтган ҳафта хорижга чиқиш паспортини олиш мақсадида шу ерга келган эдим. Бугун эса уни ҳеч бир муаммосиз қабул қилиб олдим. Ходимлар ўз хизмат вазифаларини аъло даражада удалашмоқда.

Қайд этиш жоизки, касбий маҳорат ва одамларга ҳурмат – миграция хизмати ходимларига хос бўлган асосий сифатлар ҳисобланади.

**Борис КЛЕЙМАН,**
**«На посту» мухбири.**
*Андижон вилояти.*

*Качественное образование – основа прогресса*

# НА ПУТИ СТАНОВЛЕНИЯ



**Профессиональная направленность обучения – ключевой аспект организации учебного процесса в академических лицеях МВД Узбекистана.**

В Ташкентском академическом лицее №2 МВД Республики Узбекистан прошла встреча учащихся с преподавателями кафедры криминалистических экспертиз Академии МВД и сотрудниками ЭКЦ ГУВД столичной области.

В ходе мероприятия лицеистам были доведены суть и содержание постановления Президента «О дополнительных мерах по преобразованию органов внутренних дел в народную профессиональную структуру и ориентированию их работы на более тесное взаимодействие с населением». Затем специалисты рассказали о работе экспертов в составе следственно-оперативных групп, провели занятие на тему «Современные возможности экспертно-криминалистической деятельности».

– В формате мероприятия также состоялась выставка криминалистической техники, аналитического оборудования, приборов для проведения экспертиз, – говорит подполковник Илхом Хайдаров. – Вниманию лицеистов представлена передвижная экспертно-криминалистическая лаборатория, предназначенная для выездов сотрудников на места производства следственных действий и проведения оперативно-розыскных мероприятий с целью осмотра, изъятия и исследования вещественных доказательств. Ребята получили исчерпывающие ответы на многочисленные вопросы, касающиеся экспертно-криминалистической деятельности, убедились, насколько наша профессия сложна, ответственна, значима.

**Радик ТУМПАРОВ,**
**корреспондент «На посту».**
*Ташкентская область.*

■ Республика Каракалпакстан

# ЧЕТВЕРОНОГИЕ ПОМОЩНИКИ

**В январе текущего года в УКД ОВД города Нукуса обратилась гражданка Т. Б. с заявлением о краже оконных рам из недостроенного дома, который она возводит на территории ССГ «Кум». Воры воспользовались тем, что на стройке в тот момент никого не было. Инструктор-кинолог кинологического отделения УООП СОБ МВД Республики Каракалпакстан рядовой Э. Курбанбаев вместе со служебной собакой по кличке Рэт указали направление, в котором скрылись злоумышленники. Вскоре они были задержаны – жители г. Нукуса М. Б, 2001 г. р, и Т. Р., 2000 г. р. По данному факту было возбуждено уголовное дело.**



Служебные собаки были и остаются верными помощниками сотрудников правоохранительных органов. Как бы ни шагал вперед прогресс, никто еще не смог заменить нюх четвероногих напарников стражей порядка.

Взять, к примеру, кинологическое отделение УООП СОБ МВД Республики Каракалпакстан. В подразделении с участием служебных собак ведется работа по укреплению общественного порядка, предупреждению правонарушений, раскрытию совершенных преступлений.

В настоящее время в отделении 43 служебные собаки, из них 28 проходят подготовку по следорозыску, остальные специализируются в направлениях поиска наркотиков и взрывчатых веществ.

Помощь четвероногих напарников неоценима. Только за последние два месяца текущего года кинологи со служебными собаками выезжали на 78 мест преступлений, из них 51 преступление – 41 кража, 8 фактов незаконного оборота наркотиков и два – иных видов – было раскрыто.

Так, старший сержант отделения М. Разакбергенов со служебной собакой по кличке Риф приняли участие в мероприятии, проведенном в Чимбайском районе. В ходе рейда у жителя района И. А., 1972 г.р., изъято 5,3 грамма марихуаны. Следствие выявило, что пакетик с зельем подозреваемому передал житель того же района, Ш. Ш., 1979 г. р.

Оперативно было раскрыто и дело о краже стройматериалов из дома жителя г. Нукуса. Успех поровну поделили рядовой Р. Таумуратов и его служебная собака по кличке Грета.

Сотрудники кинологического отделения принимают активное участие в предупреждении и раскрытии преступлений. В результате профилактических мероприятий по выявлению на территории республики незарегистрированного охотничьего оружия два человека добровольно сдали свои охотничьи ружья.

Безусловно, уровень подготовки сотрудников и служебных собак очень важен. Для его повышения на постоянной основе организуются учебно-тренировочные сборы. Недавно пятеро сотрудников и их четверногие напарники вернулись с двухнедельного тренировочного сбора, проведенного в Хорезмской области. А трое кинологов и их служебные собаки прошли переподготовку на месячном курсе обучения, организованном в питомнике служебного собаководства.

**Шарапат УТЕПОВ,**
**старший сержант.**

*Отклик*

# СОЗИДАТЕЛЬНЫЕ ПРЕОБРАЗОВАНИЯ

**Конституционная реформа – неотъемлемая часть коренных изменений, происходящих во всех сферах жизни страны. Она направлена на создание прочной правовой основы и адаптацию Основного Закона к сегодняшним реалиям, логике созидательных преобразований.**

В проекте Конституционного закона «О Конституции Республики Узбекистан» предусмотрены нормы, направленные на дальнейшее усиление гарантий личных, политических, экономических, социальных, культурных прав молодежи. Сформулированная норма, гласящая, что государство создает условия для интеллектуального, творческого, физического и нравственного формирования и развития молодежи, реализации ее прав на образование, охрану здоровья, жилье, трудоустройство, весьма значима для каждого из нас. В законопроекте забота о молодом поколении рассматривается как важнейшая задача государства и общества. Данная норма мотивирует на повышение социально-политической активности, реализацию своего потенциала во имя процветания Родины.

Убежден, что в нашем обществе, особенно среди молодежи, будет и далее укрепляться уважение к Конституции – Основному Закону Республики Узбекистан, являющемуся фундаментом всей правовой системы страны.

**Ахрор ВАСЛИЕВ,**
**начальник отдела Главного управления миграции и оформления гражданства МВД Республики Узбекистан,**
**майор.**

*Ommaviy sport*

# SOG'LOM TURMUSH TARG'IBOTI

**12-mart kuni poytaxtimizning markaziy ko'chalari bo'ylab Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlab o'tkazilgan V xalqaro Toshkent marafoni hamda «Yangi Nafas» an'anaviy yugurish musobaqalari yurtimizda sog'lom turmush tarzi targ'ibotiga munosib hissa qo'shdi.**




Salkam olti ming ishtirokchi va minglab sport ixlosmandlarini jamlagan ommaviy sport tadbiri aholi orasida salomatlik tamoyillarini keng yoyishga xizmat qilishi, 42 kilometrlik marafon bahslari sportchilarga «Parij–2024» Olimpiadasi reyting ochkolarini taqdim etganligi bilan alohida ahamiyat kasb etdi.

Raqamlarga e'tibor qaratilsa, 2019-yilgi Toshkent marafonida 1 ming 600 nafar yuguruvchi, 2022-yilgisida 2 ming 700 nafar qatnashchi qamrab olingan. Bu galgi marafon va yugurish musobaqalarida 34 ta davlatdan 6 ming nafardan ortiq havaskor va professional sportchi ishtirok etganligi Xalqaro yengil atletika federatsiyasi taqvimidan o'rin olgan marafonning nufuzi xalqaro maydonda ham yuksalib borayotganligini ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari, ushbu ommaviy yugurish musobaqasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan boshqa vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda barcha qatlamdagi aholi o'rtasida keng miqyosda o'tkazilishi ham an'anaga aylandi.

Xususan, birgina o'tgan yilda vazirlik tomonidan barcha tuman-shaharlarda «Sog'lom turmush tarzi uchun», «Sog'lom hayot uchun» shiorlari ostida 5 va 10 ming qadamdan iborat 20 ga yaqin (18 ta) marafon musobaqalari o'tkazilib, unga 10 mingdan ziyod aholi jalb etildi.



Yugurish musobaqalarida 7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan insonlar, ayniqsa, matonat va iroda timsoli bo'lgan para sportchilarning ham qatnashganligi, ularni poytaxt ahli, keng jamoatchilik vakillari, yuzlab tomoshabinlar qo'llab-quvvatlab turganligi bahslarga zavq bag'ishladi.

Musobaqani yuqori saviyada o'tkazish maqsadida Ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiya xodimlari tomonidan jamoat va yo'l-harakati xavfsizligini ta'minlash choralari ko'rildi.

Toshkentda poyoniga yetgan marafon hamda yurtimizning 14 ta hududida o'tgan «Yangi Nafas» an'anaviy yugurish musobaqalari 80 ming nafarga yaqin ishtirokchini bir maqsad atrofida jam etganligi, yuzlab kishilarni ommaviy sport mashg'ulotlariga jalb etishi bilan tarixga aylandi.

Bir so'z bilan aytganda mazkur an'anaviy yugurish musobaqalari chinakam bayram ko'rinishini oldi.

**O'z muxbirimiz.**

*Yoshlar — kelajak bunyodkori*

# «NURLI MASKAN»NING «ZULFIYACHI» QIZI

**Joriy yilning 6-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlash to'g'risida»gi qaroriga asosan, iqtidorli, turli sohalarda qobiliyat hamda imkoniyatlarini ro'yobga chiqarayotgan, intellektual salohiyatini namoyon etib, o'z g'oya va tashabbuslarini ilgari surayotgan 28 nafar qiz Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Quvonarlisi, mukofotlanganlar orasida bo'lgan Sadoqat Tuliboyeva yuksak mukofotni davlatimiz rahbarining qo'lidan qabul qilib oldi.**

– Yurtboshimiz tomonidan yuksak mukofotga loyiq ko'rilganim menga ulkan mas'uliyat yuklaydi, – deydi Sadoqat Tuliboyeva. – Albatta, bu e'tirof va yutuq zamirida, avvalo, ota-onam, ustozlarim va shashka hamda fortepyano yo'nalishidagi murabbiylarimning katta mehnatlari yotibdi. Buning uchun ulardan minnatdorman. Yurtboshimizning yuksak e'tibori va ishonchini oqlash uchun, kelgusida yanada katta yutuqlarga erishishga va Vatanimiz bayrog'ini yuqori ko'tarishga yangicha kuch va g'ayrat bilan harakat qilaman.

Odatda insonning qobiliyati yoshligida namoyon bo'la boshlaydi. Faqat unga alohida g'amxo'rlik qilinsagina kelajakda yutuqlari bo'y ko'rsatishi mumkin. Tirishqoqligi va qiziquvchanligi bilan tengqurlaridan ajralib turgan Sadoqatning iqtidorini o'z vaqtida payqagan ota-onasi unga alohida e'tibor qaratdi.

Sadoqat Tuliboyeva 2006-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. Hozirda IIV otalig'idagi 77-sonli «Nurli maskan» ixtisoslashtirilgan maktab-internatining 10-sinfida tahsil olmoqda. Otasi Akmurat Utamurodov ham ushbu maktab-internatning matematika-informatika o'qituvchisi. U farzandining qobiliyatini o'z vaqtida payqab, sportning shashka turiga qiziqishini yanada rivojlantirish, onasi Sayyora opa esa uy bekasi bo'lsa-da, qizining uy vazifalari hamda qo'shimcha mashg'ulotlarni o'z vaqtida bajarishi uchun barcha sharoitlarni yaratib berdi.

Sekin-asta mahorati oshib borgan qizaloq turli musobaqalarda ishtirok etib, shashka bo'yicha sovrinli o'rinlarni egallay boshladi. Murabbiyi Bahodir Ubaydullayev bilan Toshkent shahar Milliy gvardiya qoshidagi «Yosh gvardiyachilar» sport maktabida shashka bo'yicha shug'ullanib kelmoqda.

Musiqaning fortepyano yo'nalishi bo'yicha ta'lim olgan qahramonimiz turli ko'rik-tanlovlarda faol ishtirok etib, sovrinli o'rinlarni egallab kelmoqda. Shuningdek, u Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus ijrosini ta'minlash hamda yoshlarning bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazish bo'yicha tashkil etilgan madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari va kitobxonlik tanlovlarining faol ishtirokchisidir.

– Sadoqatxon ta'lim muassasamizning eng bilimli o'quvchilaridan, – deydi maktab-internat direktori Rustam Safarov. – Prezidentimizning 2020-yil 13-oktabrdagi «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga binoan, mamlakatimizdagi sog'lom yoshlar orasida o'zining iqtidorini namoyon etib, o'ziga o'xshagan imkoniyati cheklangan tengdoshlarining har tomonlama kamol topishi uchun ruhiy dalda bo'lmoqda. Kelajakda undan umidimiz katta.

**Sarvar SOBIROV,**
**«Postda» muxbiri.**
*Toshkent shahri.*



O'zbekiston, Osiyo chempionati sovrindori va ikki karra Jahon chempioni, shashka bo'yicha sport ustaligiga nomzod S. Tuliboyeva O'zbekiston ko'zi ojizlar terma jamoasi a'zosi.

# ЧИНАКАМ ХАЛҚ КОНСТИТУЦИЯСИ




(Давоми. Бошланиши 1-бетда.)

Хусусан, лойиҳа юзасидан фуқароларнинг фикр ва таклифларини қабул қилиш, умумлаштириш ва уларга жавоб қайтариш механизмлари жорий қилинганлиги, «Meningkonstitutsiyam.uz» электрон платформаси, колл-маркази, почта алоқаси, маҳаллалар, халқ депутатлари маҳаллий кенгашлари ва ижтимоий тармоқлар орқали фуқаролардан **220 мингдан** ортиқ таклифлар қабул қилиниб, уларнинг ҳар тўрттасидан биттаси лойиҳадан жой олди. Бу эса янгиланаётган Конституция том маънода халқ Конституцияси эканлигидан далолатдир.

- **Конституциявий қонун лойиҳасини тайёрлаш жараёнида БМТ, ЕХҲТ, ШҲТ, ЕИ, Туркий давлатлар ташкилоти ва бошқа халқаро ташкилотлар томонидан қабул қилинган 400 дан ортиқ халқаро ҳужжатлар, 190 га яқин мамлакатлар конституциялари пухта таҳлил этилди.**
- **Халқаро эксперт ва мутахассислар иштирокида бир неча бор муҳокама қилинди, 10 га яқин хорижий ва халқаро экспертизалардан ўтказилиб, улар томонидан ҳам қўллаб-қувватланди.**
- **Конституциявий қонун лойиҳаси билан амалдаги Конституцияга 27 та янги модда киритилмоқда. Моддалар сони 128 тадан 155 тага ошмоқда. Яъни, амалдаги Конституциямиз 65 фоизга янгиланмоқда.**
- **Ўзбекистон «ижтимоий давлат» деган конституциявий тамойил муҳрланаётгани, Конституцияда давлатнинг ижтимоий соҳадаги мажбуриятлари билан боғлиқ нормалар 3 баравар оширилмоқда.**
- **Янгиланаётган Конституция лойиҳасида Сенатни ихчамлаштириш, сенаторлар сонини амалдаги 100 нафардан 65 нафарга қисқартириш таклиф этилмоқда.**

Бундан ташқари, давлат оммавий ахборот воситалари фаолиятининг эркинлигини кафолатлаш, шунингдек, ОАВ фаолиятига тўсқинлик қилиш ёки аралашиш қонунга мувофиқ жавобгарликка сабаб бўлиши мустаҳкамлаб қўйилади.

Конституцияда шахснинг судланганлиги ва ундан келиб чиқадиган ҳуқуқий оқибатлар унинг қариндошлари ҳуқуқларини чеклаш учун асос бўлмаслиги белгиланмоқда. Ушбу қоида заррача айби йўқ шахсга нисбатан айбдор сифатида қараш каби сарқитлардан холи этишга қаратилган.

- **2023 йил 13 март куни бўлиб ўтган Конституциявий суд мажлисида Олий Мажлис Қонунчилик палатасининг «Ўзбекистон Республикаси Конституцияси тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Конституциявий Қонуни лойиҳаси бўйича Ўзбекистон Республикаси референдумини ўтказиш ҳақида»ги қарори (иловаси билан) Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига мувофиқлигини аниқлаш тўғрисидаги масала кўриб чиқилди.**
- **Конституциявий суд «Ўзбекистон Республикаси Конституцияси тўғрисида»ги Конституциявий қонун лойиҳасининг ҳар бир моддаси ва бандини атрофлича кўриб чиқди. Конституциявий суд томонидан референдум тайинлаш тартибига риоя этилганлиги ўрганилганда, Ўзбекистон Республикаси референдуми 2023 йил 30 апрель – якшанба куни ўтказилиши «Ўзбекистон Республикасининг референдуми тўғрисида»ги қонунининг 14-моддасига мувофиқлиги ҳамда референдум ўтказилишини истисно этадиган ҳолатлар мавжуд эмаслиги ҳақида тўхтамга келди.**
- **Олий Мажлис Сенатининг 14 март куни бўлиб ўтган мажлисида сенаторлар томонидан «Ўзбекистон Республикаси Конституцияси тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Конституциявий қонуни лойиҳаси бўйича Ўзбекистон Республикаси референдумини ўтказиш ҳақида»ги қарор қабул қилиниб, унга кўра, референдум 2023 йил 30 апрель кунига тайинланди.**

Қонун лойиҳаси «Халқ сўзи» ва «Народное слово» газеталарининг 15 март кунги сонида эълон қилинди. Қонун лойиҳаси 6 бўлим, 27 боб, 155 моддадан иборат. Конституциявий қонун Марказий сайлов комиссияси томонидан референдум якунлари расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

**«Postda» мухбири Сарвар СОБИРОВ тайёрлади.**

*Муносабат*

# ФАРОВОНЛИГИМИЗ КАФОЛАТИ

Одатда оммавий ахборот воситаларида эълон қилинадиган кўплаб материалларда Конституциямизга нисбатан «Бахтимиз қомуси» дея таърифу тавсиф берилади. Бу бежиз эмас. Агар «қомус» сўзининг луғавий маъносига эътибор берсак, мукаммал, тўлиқ деган маъноларни билдиради. Демак, Асосий қонунимизнинг бундай таърифланиши халқимизнинг фаровон ҳаётини, ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш учун барча қонуний асосларни ўзида мужассам қилгани билан боғлиқ.

Янги Ўзбекистонимизнинг эришаётган ютуқлари юртдошларимизнинг замон ўзгаришига монанд дунёқараши, онгу тафаккури, ҳуқуқий ва сиёсий маданияти юксалиб, фуқаролик масъулияти кучайиб бораётганлигида намоён бўлмоқда. Бугун дунёда юртимиз муносиб ўрнини эгаллаши аввало халқимиз танланган йўли ва янгиланаётган Конституциямизнинг ҳаётий қоидалари самараси билан бевосита чамбарчас боғлиқ, дейиш мумкин.

**«Ўзбекистон Республикаси Конституцияси тўғрисида»ги Конституциявий қонун лойиҳасини тайёрлаш жараёнида ҳамюртларимиз жуда фаол иштирок этди. Асосий қонунимизнинг матнининг 65 фоизи айнан халқимиз таклифлари асосида янгиланмоқда. Бу эса Бош қомусимиз чинакам Халқ конституцияси бўлишидан далолатдир.**

Олий Мажлис Қонунчилик палатасидаги сиёсий партиялар фракцияларининг йиғилишида янгиланаётган Конституция лойиҳасини такомиллаштириш бўйича амалга оширилган ишлар атрофлича муҳокама этилди. Олий Мажлис Сенати «Ўзбекистон Республикаси Конституцияси тўғрисида»ги Конституциявий қонуннинг лойиҳасини ва уни референдумга қўйишни маъқуллади.

Янгиланаётган Конституциянинг қатор меъёрларида ижтимоий ҳимоя, ҳуқуқлар ва имкониятлар аниқ акс этган. Конституциявий қонун лойиҳасида пенсия, нафақа ва бошқа ижтимоий ёрдамлар миқдори энг кам истеъмол харажатларидан оз бўлиши мумкин эмаслиги ҳам белгилаб қўйилмоқда. Фуқаролар тиббий ёрдамнинг қонунда кафолатланган ҳажмини бепул олишга ҳақли экани ўз ифодасини топмоқда.

Шунингдек, инсоннинг айбсизлик презумпцияси Конституция билан ҳимояланмоқда. Шахсни жиноят содир этган деб эълон қилиш фақатгина суд ҳукмига асосланилиши лозимлиги қайд этиляпти. Судланаётган фуқароларнинг умуминсоний ҳуқуқларга риоя этилиши ва тергов жараёнларидаги муҳим инсонпарвар қоидалар жорий этилиши белгиланмоқда. Шахсни айбига иқрор қилиш эмас, балки тергов ва судда ҳақиқатни ишончли далиллар билан аниқлаш, исботлаш зарурлиги белгилаб қўйиляпти.

Таъкидлаш жоизки, янгиланаётган Конституциямиз бахтимизнинг, фаровонлигимизнинг, ҳурлигимизнинг, озодлигимизнинг кафолати ўларoқ, халқимиз учун табаррук ижтимоий-ҳуқуқий қадрият даражасига кўтарилишига шубҳа йўқ. Унинг қудратли, ҳаётбахш қоидалари жамият тараққиётига, инсон манфаатларига, мамлакатимизда демократлашув жараёнларининг янги босқичга кўтарилишига хизмат қилади.

**Хуршидбек РЎЗИЕВ,**
**подполковник.**

*В преддверии референдума*

# ДУХОВНОЕ РАЗВИТИЕ ЛИЧНОСТИ – В ПРИОРИТЕТЕ

**30 апреля в стране состоится референдум по проекту Конституционного закона «О Конституции Республики Узбекистан».**

На новом этапе реформ для Узбекистана приоритетным является не только решение политических, экономических, социальных проблем, но, прежде всего, вопросов, связанных с воспитанием личности, укреплением в обществе высоких духовных ценностей в соответствии с исторически сложившейся ментальностью.

Воспитать физически крепкого человека не очень сложно. Воспитать же его и физически, и духовно зрелой, цельной личностью – задача архисложная. Важно понимать, что именно духовность оберегает нацию, культуру, образ жизни, так как это потенциал самосохранения и саморазвития. Духовное наследие нашего народа аккумулирует многовековую историю, социальные и культурные связи, жизненный опыт, тысячелетние достижения в науке, искусстве, производстве, служит неисчерпаемым источником знания, обогащает жизнь, расширяет кругозор.

Строительство Нового Узбекистана является продолжением независимого прогресса страны на качественно новом этапе, с еще более глубоким изучением древней и новейшей истории, уникального культурного наследия. В решении этого вопроса самые большие надежды возлагаются на молодежь – мощную силу, которой принадлежит будущее страны.




В республике созданы все необходимые условия для реализации молодым поколением своего потенциала. Только за последнее время принято около 80 законодательных и нормативно-правовых актов, касающихся молодежной политики, образован Союз молодежи Узбекистана, разработана Концепция развития государственной молодежной политики в Узбекистане до 2025 года, созданы институциональные структуры. Фонд «Эл-юрт умиди» предоставляет гранты талантливым юношам и девушкам, жаждущим заниматься наукой, для обучения в ведущих вузах. В рамках принятой стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» в регионах и отраслях реализуются масштабные проекты с целью подготовки продвинутого кадрового потенциала.

В стране реформируются все звенья образования. Создается совершенно новая сеть специализированных школ, для обучения современным профессиям открываются сотни профильных учебно-производственных объектов, IT-парки. В соответствии с требованиями времени модернизируется система высшего образования, где активно внедряются передовые формы и технологии обучения, новые направления подготовки специалистов. Цель – воспитание личности творческой, думающей, созидающей.

Вышеизложенное не означает, что проблем нет. Они есть, и их надо решать. Процессы технологизации все больше влияют на сознание современного человека, именно поэтому в условиях проводимой в стране конституционной реформы мы должны четко осознавать имеющиеся проблемы и закрепить конституционно значимость духовно-нравственного воспитания подрастающего поколения. **В этой связи особо важным представляется закрепление в Основном Законе нормы о том, что «государство и общество заботятся о формировании у детей и молодежи приверженности национальным и общечеловеческим ценностям, гордости за страну и богатое культурное и духовное наследие народа, чувства патриотизма и любви к Родине».** Принятие данной конституционной нормы позволит охватить всю систему просвещения и образования масштабной работой по воспитанию гармонично развитого поколения в целях динамичного продвижения Узбекистана по пути модернизации и обновления.

**Каринэ ДЖАВАКОВА,**
**полковник,**
**доктор философских наук,**
**профессор.**

*Школа наставничества*

# ВСЕГДА ПОМОЖЕТ СОВЕТОМ



**В жизни каждого наставники и учителя играют важную, судьбоносную роль. Благодаря этим самоотверженным и мудрым людям мы познаем мир во всех его гранях, на примере их неоценимого опыта учимся быть рассудительными, терпеливыми, внимательными и настойчивыми, избегать досадных ошибок, принимать правильные решения.**

Во всех отраслях у молодых специалистов есть наставники. Отрадно, что школа наставничества имеет большую значимость в органах внутренних дел, и эта традиция, словно эстафета опыта и мастерства, передается из поколения в поколение.

Старший эксперт Экспертно-криминалистического центра ГУВД г.Ташкента подполковник Нодира Закирова является одним из лучших специалистов подразделения. Профессионал своего дела, она умеет увидеть то, что невозможно увидеть человеку, несведущему в такой сложной и многогранной науке, как экспертная криминалистика. Имея за плечами годы кропотливого труда и богатый наработанный опыт, Нодира Гаффаровна щедро делится им с более молодыми коллегами – экспертами Центра капитанами Богабеком Тожибоевым и Азизбеком Ариповым, являясь для них и наставником, и учителем.

Это очень важно, когда рядом есть тот, кто всегда поможет советом, не считаясь с нехваткой времени и занятостью.

**Георгий ПЕТРОСЯН,**
**корреспондент «На посту».**

*Ma'naviyat va ma'rifat darsi*

# BUYUK MUTAFAKKIR VA QOMUSIY OLIM

## (Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligi)

***Amerika — sehrli diyor,***
***Uxlar edi Kolumb ham hali,***
***Dengiz ortin yoritdi ilk bor,***
***Beruniyning aql mash'ali.***

O'zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Abdulla Oripov mazkur to'rtligida ona yurtimizning asl farzandi ulug' alloma Abu Rayhon Beruniyning naqadar kuchli iste'dod sohibi ekanligiga ishora qilgan. Beruniy asarlarini mutolaa qilgan har bir kitobxon xuddi o'zini ushbu asarlar sehri ostiga tushib qolgandek his qilib, undagi ilm sirlaridan bahra oladi.

**Qomusiy olim Muhammad ibn Ahmad Abu Rayhon Beruniy 973-yilning 4-sentabr kuni qadimgi Xorazmning Kat shahrida tavallud topgan. U o'zining tinimsiz izlanishlari tufayli ko'hna diyor ilm fanining yuksak cho'qqilarini zabt etadi. Ul zot siymosida o'rta asrlar sharqining astronomi, geografi, ma'danshunosi, etnografi, tarixchisi hamda shoiri mujassamlashgan edi. Uning ilmiy sa'y-harakatlari samarasi o'laroq, fanning turli sohalariga oid juda ko'plab yirik asarlar yaratildi.**

Beruniy Abu Nasr Iroq rahbarligida yoshligidan riyoziyot va falakiyotni o'rganib, 16–17 yoshlaridayoq, Quyoshning choshgohdagi balandligini armilada o'lchagan. Oradan 30 yil o'tib, yoshligida o'zi o'lchagan natijalarni tahlil qilar ekan, ular anchagina ishonchli bo'lganligini ta'kidlaydi. Yoshlik yillarida quyosh tutilishini ham kuzatishga muyassar bo'ladi. U 22 yoshida Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib, globusni ixtiro qildi.

Ajdodlar qoldirib ketgan ko'plab kitoblarni o'rgandi va bizgacha yetib kelgan, turli xalqlarning yil hisoblari to'g'risidagi ilk yirik asari – «Osorul boqiya» (Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar)ni bitadi. Unga ko'ra, yunonlar, rimliklar, forslar, sug'diylar, xorazmiylar va boshqa ko'plab qabila va xalqlarning o'tmishi, bayram va taqvimlari, shuningdek, sharq mamlakatlarining madaniyat va adabiyot tarixi to'la-to'kis talqin etilgan. Ushbu asarda Beruniy o'zini nafaqat elshunos olim balki arab, yunon, fors, suryoniy va boshqa tillar hamda adabiyotlarning bilimdoni sifatida ham namoyon etadi.

Abu Rayhon Beruniyning ustozi Abu Nasr ibn Iroq o'z davrining yetuk bilimdoni edi. Tirikligidayoq «o'z davrining Ptolemeyi» degan nomga sazovor bo'lgan olim Beruniyni o'z xonadonida tarbiyalab voyaga yetkazdi. Ana shu ikki buyuk siymo tufayli Gurganch saroyida ilm ahli uchun barcha sharoitlar yaratildi. Yaqin va o'rta sharqdagi ko'plab olimlar bilan shaxsiy yozishmada bo'lgan Ibn Iroq va Beruniyning takliflariga binoan, 1004-yildan boshlab, Nishopur, Balx va Buxorodan hatto arab va Iroqdan ham olimlar Gurganchga kela boshladi. Shu tariqa, Gurganchda «Dorul hikma», ya'ni «Donishmandlar uyi» nomini olgan ilmiy muassasa paydo bo'ldi. Unda xuddi Bag'dodda barpo etilgan «Baytul hikma»dagi kabi ilmning barcha sohalarida tadqiqot va izlanishlar olib borildi. Beruniy keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, u yerda suryon va yunon tillaridan ba'zi tarjimalar ham bajarilgan.

Ali ibn Ma'mun vafotidan so'ng (1009) uning ukasi Abul Abbos Ma'mun ibn Ma'mun Xorazmshohlar hukmdori bo'ldi. U Beruniyni saroyga taklif qilib, o'ziga eng yaqin maslahatchi etib tayinladi. Natijada Ma'mun akademiyasi faoliyati uchun yanada keng imkoniyatlar eshigi ochildi.

**Qirqdan ortiq olimlar faoliyat yuritgan ilmiy markazda o'z davrining yetuk insonlari matematika, astronomiya, ruhiyat, kimyo, mantiq, tibbiyot, falsafa, tarix, tilshunoslik, ta'lim-tarbiya, adabiyot, musiqa, geografiya, geodeziya, topografiya va mexanika singari turli fanlar bilan shug'ullanib, ularning kelajakdagi taraqqiyotiga mustahkam zamin yaratildi.**

Ammo ushbu akademiyaning faoliyati uzoqqa cho'zilmadi. 1017-yilda Xorazm yirik istilochi Sulton Mahmud G'aznaviy qo'l ostiga o'tdi. Xorazmshohning qat'iy talabi va ko'magi bilan Gurganchdan yunon, yahudiy, arab va boshqa xalqlarning vakillaridan iborat kichik ilmiy karvon Abu Ali ibn Sino boshchiligida chiqib ketadi. Sulton Mahmud shaharda qolgan olimlarning ba'zilarini dahriylikda ayblab qatl ettiradi, qolgan mashhur olimlarni o'z mamlakatining poytaxti G'azna shahriga olib keladi. U yerda Beruniy «Hindiston tarixi» asarini hamda 1025-yilda «Geodeziya», 1030–1041-yillar oralig'ida esa «Al-qonun al-Mas'udiy», 1041–1048-yillarda «Mineralogiya» hamda «Kitob as-saydana fit-tibb» asarlarini yaratadi. Olim tomonidan 152 ta risola yaratilib, shundan 30 tasi bizgacha yetib kelgan.



**Beruniy shunday serqirra olimki, o'z davrida mavjud bo'lgan ilm sohalaridan shug'ullanmagani uning shug'ullanganidan kamdir. Uning yozgan asarlari shunchalik ko'p va serqirraki, bunga bir odamning umri kifoya qilganiga kishi hayron qoladi.**

**V. BARTOLD.**

Ta'kidlash joizki, Abu Rayhon Beruniy bundan ming yil oldin Hindistonda bo'lib, uning tarixi, madaniyatini o'rganish uchun qadimgi hind yozuvi – sanskritni o'rganib, o'zining mashhur «Hindiston» asarini yozdi. Mazkur asarda hind adabiyoti, falsafasi, aniq fanlar, geografiya, elshunoslik, qonun va urf-odatlar, din, tarixiy-diniy rivoyatlar hamda hind yozuvining turlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Ilm-fanning hamma sohalarini yaxshi bilgan qomusiy olimning Ibn Sino bilan yozishmalarida ham fazo, issiqlikning tarqalishi, jismlarning issiqdan kengayishi hamda nurning aks etishi va sinishi kabi masalalarda ilmiy munozara olib borgan.

**1048-yilda G'azna shahrida vafot etgan buyuk ajdodimizning nomini abadiylashtirish maqsadida yurtimizdagi ko'plab ilmiy markazlar, markaziy ko'chalar hamda shahar va qishloqlarga uning nomi berildi. Bobokalonimiz tavalludining 1050 yilligini keng nishonlash bo'yicha o'tgan yilning avgust oyida davlatimiz rahbarining qarori ham qabul qilinib, unga ko'ra, 2022–2023-yillarda buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligi YUNESKO shafeligida xalqaro miqyosda keng nishonlanishi ko'rsatib o'tildi.**

Unga muvofiq, «Buyuk Beruniy merosi» xalqaro sayyohlik marshrutlarini yo'lga qo'yish, joriy yil yakuniga qadar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumanida Abu Rayhon Beruniy majmuasini qurish, alloma ilmiy-ijodiy merosiga mansub qo'lyozma va boshqa madaniy boyliklarni restavratsiya qilish hamda Fanlar akademiyasining Qoraqalpog'iston bo'limi va Xorazm Ma'mun akademiyasida madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish va konservatsiya qilishga ixtisoslashgan laboratoriya tashkil etish ko'zda tutildi.

Shuningdek, qaror doirasida o'quvchilar o'rtasida Xorazm viloyatida tegishli fan bo'yicha Abu Rayhon Beruniy nomidagi xalqaro fan olimpiadasini o'tkazish, shu nomdagi xalqaro mukofot ta'sis etish hamda allomaning to'liq asarlari turkumini o'zbek, qoraqalpoq, rus, ingliz, arab va fors tillarida nashr etish va boshqa bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan.

Bu jonajon yurtimizda buyuk ajdodlarimizga bo'lgan hurmat-e'tibor va qadr-qimmatning yuksak ifodasidir.

**Mixli SAFAROV,**
**«Postda» muxbiri.**

*Туман ИИБда*

# УЧТЕПА ТУМАНИ

**Учтепа тумани ИИОФМБ ЖТСБ саф бўлинмаси патруль-пост хизмати ходимлари ҳудуд осойишталигини таъминлашга муносиб ҳисса қўшиб келмоқда.**

Жамоат жойларида осойишталикни таъминлаш, жиноятларни «иссиқ изида» фош этиш мақсадида криминоген вазият оғир бўлган маҳаллаларга қўшимча патруль йўналишлари жалб қилинаётгани ижобий натижа бермоқда. Бундан ташқари, ўтказилаётган профилактик тадбирлар самараси ўлароқ, аҳоли жиноят содир этилишига шароит яратиб бермаслик, жумладан, автотранспорт воситаларини турли нарса ва буюмларни қаровсиз қолдирмаслик ҳақида огоҳлантирилмоқда.






– Жорий йил бошидан буён шу кунга қадар 54 нафар шахс ёнида ўткир тиғли жисмлар олиб юргани аниқланди, – дейди туман ИИОФМБ ЖТСБ бошлиғи, подполковник Бахтиёр Мисиров. – Уларга нисбатан маъмурий баённомалар расмийлаштирилди. Фуқаролар хавфсизлигига таҳдид солиши мумкин бўлган бу каби ҳолатларнинг олдини олиш мақсадида жойларда, хусусан, корхона ва ташкилотларда, таълим муассасаларида учрашувлар, давра суҳбатлари ўтказиб келиняпти.

Таъкидлаш керакки, ўтган қисқа вақт мобайнида соҳа ходимлари кўча ва жамоат жойларида содир этилган 11 та жиноятни бошқа соҳавий хизмат вакиллари билан ҳамкорликда «иссиқ изида» фош қилдилар. Гиёҳвандлик моддалари билан боғлиқ 6 та ҳолат аниқланиб, жиноятга жазо муқаррарлиги таъминланди. Шунингдек, 19 нафар қидирувдаги шахс аниқланиб, ушланди. Масалан, ППХ 2-отряди командири, лейтенант М.Усмонов, гуруҳ командири, катта сержант Ш.Авазов, сафдорлар Ш.Баҳромов ва Т.Холхўжаев томонидан фирибгарлик жиноятини содир этиб, ҳуқуқ-тартибот органларидан яшириниб юрган фуқаролар А.Ж. ва У.Н. ушланиб, туман ИИОФМБга топширилди.

**Шерзод АБДУСАМАДОВ,**
**«Postda» мухбири.**
*Тошкент шаҳри.*

*Патруль шаҳар кезади*

# СИНЧКОВ НИГОҲЛАРДА ҚАТЪИЯТ ЯШИРИН

**Фарғона вилояти ИИБ Иккинчи минтақавий ҳудуди ППХ отряди 4-гуруҳ ходимлари Қўқон шаҳрининг Чархий кўчасида хизмат олиб бориш жараёнида шубҳали ҳаракатланаётган фуқарога рўбарў келишди. Фуқаро тўхтатилиб, унинг ёни холислар иштирокида кўздан кечирилганида, чўнтагида гашиш гиёҳвандлик моддаси борлиги аниқланди.**

Шунингдек, Биринчи минтақавий ҳудуд ППХ отряди 2-гуруҳ ходимлари Фарғона шаҳри кўчаларида хизмат олиб бориш жараёнида қидирувдаги фуқаронинг яшириниб юрган жойини аниқлашга муваффақ бўлишди. У шахс дарҳол ушланиб, 10-сонли тергов ҳибсхонасига жойлаштирилди.

Патруль-пост хизмати ходимлари фаолиятидан бундай мисолларни кўплаб келтириш мумкин. Бевосита рақамларга мурожаат этадиган бўлсак, жорий йилнинг ўтган даврида соҳавий хизмат ходимлари томонидан ҳуқуқбузарликлар содир этган 10826 нафар шахсга маъмурий баённома расмийлаштирилди. 27 та жиноят «иссиқ изида» очилди, 32 нафар қидирувдаги шахс ушланди. «Тиғ» тадбири давомида фуқаролардан 1574 та пичоқ, 43 та кастет, 21 та бита ва 100 та бошқа тиғли жисмлар аниқланиб, олинди.





Соҳа ходимлари томонидан ўтказиб келинаётган тунги профилактик тадбирларда кўплаб савдо дўконлари, дорихоналар, кафе-ресторанлар, массаж ва СПА салонлар, интернет клублари текширилди. Шунингдек, талончилик, безорилик, ўғрилик, босқинчилик, фирибгарлик ва одам савдоси билан боғлиқ жиноятларнинг олдини олиш мақсадида аҳолига ўн мингтага яқин огоҳликка чорловчи буклетлар тарқатилди.

...Бугун Фарғона кўчаларида сайр қилган киши кўзларидан ўт чақнаб турган ходимларни учратади. Синчков нигоҳларида қатъият яширинган бу йигитлар ўзларига бириктирилган ҳудудларда автопатруль, мотопатруль ва пиёда йўналишларида хизматни сидқидилдан олиб боришяпти. Уларнинг кеча-кундуз олиб бораётган хизматлари туфайли юртда хотиржамлик ва фаровонлик ҳукм сурмоқда.

**Азамат МИРЗАКАМОЛОВ,**
**катта сержант.**
**Абдувосит СИДИҚОВ,**
**«Postda» мухбири.**
*Фарғона вилояти.*

*Урок духовности и просвещения*

# Великий мыслитель и ученый-энциклопедист

«Это был период Первого Ренессанса на нашей земле, когда появилась целая плеяда корифеев науки, имена и труды которых и сегодня широко известны всему миру. Мухаммад Хорезми, Ахмад Фергани, Абу Райхан Беруни, Абу Али ибн Сина, Махмуд Замахшари и десятки других ученых своей научной деятельностью и открытиями мирового значения внесли огромный вклад в общечеловеческое развитие».

**Шавкат МИРЗИЁЕВ.**

Мировое научное сообщество давно признало, что древние государства Туран, Туркестан, Мовароуннахр, на территориях которых раскинулся современный Узбекистан, являлись колыбелью мировой цивилизации, родиной величайших мыслителей, яркой звездой среди которых светит Абу Райхан Беруни.

Великий ученый Востока – достойный представитель хорезмской научной школы, основатель Хорезмской академии Маъмуна, объединявшей более сотни известных мыслителей и оставившей глубокий след в интеллектуальной истории человечества, родился в 973 году в хорезмском городе Кят (ныне Беруни в Республике Каракалпакстан). Выйдя из ремесленнических кругов, получил отличное математическое и философское образование.

Беруни по праву можно назвать триумфатором науки средневекового Востока, опередившим время и внесшим огромную лепту в сокровищницу научного наследия человечества. Он энциклопедист, автор многочисленных капитальных трудов по истории, географии, филологии, астрономии, математике, механике, геодезии, минералогии, фармакологии. Ученый написал около 180 работ, посвященных почти всем отраслям знания своего времени. Из числа дошедших до нас книг научной общественности стали доступны «Памятники минувших поколений», «Индия», «Геодезия», «Минералогия», «Тафхим» (также известна как «Книга вразумления начаткам науки о звездах», «Наука о звездах», «Астрономия», «Астрология»), «Канон Масъуда», «Китоб ас-сайдана фит-тибб».

Изучение трудов выдающегося энциклопедиста дало возможность исследователям ознакомиться с множеством его открытий и научных изобретений, установить его огромный вклад в развитие мировой науки. В частности, еще за 500 лет до Коперника он выдвинул и обосновал жизненность гелиоцентрической теории мира, согласно которой Солнце является центральным небесным телом, а вокруг него вращаются Земля и планеты. Изучая времена года и траекторию планет, он отмечал, что каждая планета в течение «планетарного года» два раза приближается и два раза удаляется от светила.

Беруни измерил длину земной окружности с невероятной точностью, его вычисление отличалось от расчетов современных ученых всего на 200 миль. Он впервые выдвинул гипотезу и обосновал существование за пределами Европы и Азии неизвестного материка. Это удивительные достижения для ученого, который жил более тысячи лет назад.

Беруни признан основоположником новой отрасли науки об измерениях рельефа местности и поверхности Земли – геодезии. В области минералогии он впервые измерил удельный вес твердых тел и жидкостей с помощью собственного прибора и на основе этого предложил классификацию минералов, разработал теорию их происхождения и парагенетические сведения. Американский историк Джордж Сартон подчеркивал, что «история астрономии и математики, астрологии и географии, антропологии и этнографии, археологии и философии, ботаники и минералогии осиротела бы без его великого имени».



Труды и рукописи Беруни вошли в золотой фонд библиотек Великобритании, Германии, Испании, России, Франции, Египта, Индии, Ирана, других стран. Однако не все сохранившиеся сочинения изучены в одинаковой степени: некоторые из них продолжают оставаться в виде рукописей. В результате отдельные стороны многогранной научной деятельности ученого-энциклопедиста не нашли еще достаточного освещения и достойной оценки.

В 2022 году Исполнительный комитет ЮНЕСКО принял решение о включении в список международных годовщин наследия ЮНЕСКО и празднование в 2022-2023 годах в международном масштабе 1050-летия Абу Райхана Мухаммада ибн Ахмада Беруни. Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев в августе 2022 года издал соответствующее постановление.

Было одобрено предложение Фонда развития культуры и искусства, Национальной комиссии по делам ЮНЕСКО, Республиканского центра духовности и просветительства, Академии наук, министерств культуры и иностранных дел и широкой общественности о праздновании 1050-летия великого мыслителя и ученого-энциклопедиста Абу Райхана Беруни.

Запланирован ряд мероприятий:

– дальнейшая поддержка научных исследований ученых-экспертов в международном масштабе в целях изучения научного наследия Беруни, создания научных, художественно-публицистических произведений, изданий произведений ученых;

– учреждение международной премии имени Абу Райхана Беруни в целях награждения лиц и научно-творческих учреждений, внесших огромный вклад в глубокое изучение и популяризацию его бесценного научно-просветительского наследия;

– организация среди учащихся средних общеобразовательных организаций, академических лицеев и профессиональных школ международной предметной олимпиады имени Абу Райхана Беруни по соответствующей дисциплине в Хорезмской области;

– укрепление материально-технической базы Каракалпакского отделения Академии наук и Хорезмской академии Маъмуна, реставрация рукописей и других культурных ценностей, относящихся к научно-творческому наследию мыслителя, создание необходимых условий для их надежного хранения;

– налаживание международных туристских маршрутов «Буюк Беруний мероси» по мемориальным комплексам, памятникам и местам поклонения, связанным с его именем, а также строительство в Берунийском районе Республики Каракалпакстан специального комплекса с организацией на его территории деятельности научно-просветительских, культурно-досуговых и туристских объектов;

– организация мероприятий, посвященных юбилею Беруни, совместно с зарубежными странами и международными организациями, ЮНЕСКО, включая проведение научных конференций и круглых столов, в том числе в посольствах Республики Узбекистан за рубежом, узбекских национальных культурных центрах, обществах соотечественников, в целях широкого изучения и пропаганды его научно-просветительского наследия и гуманистических идей;

– создание художественных, мультипликационных и полнометражных документальных фильмов, телесериалов, посвященных жизни и научно-просветительской деятельности Беруни, и их широкий показ также в зарубежных странах.

В целях выполнения задач, указанных в данном постановлении, недавно были изданы произведения Беруни, входящие в семитомную серию.

Величие ученого-энциклопедиста отражается в неизмеримом наследии, вкладе в развитие многих наук на многие тысячелетия вперед. Научное наследие Беруни привлекает пристальное внимание современных ученых естественных и прикладных наук, философов, политологов, историков и культурологов.

Более 30 произведений ученого было переведено на разные языки, среди которых английский, русский, немецкий и узбекский. Три научных труда изданы в оригинале. Множество сочинений Абу Райхана Беруни стало предметом глубоких исследований, которые изложены в работах европейских и американских ученых.

Гениальные труды и научное наследие великого ученого стали достоянием всего человечества, бесценным кладезем, источником мудрости и знаний для новых и новых поколений.

**Георгий ПЕТРОСЯН,**
**корреспондент «На посту».**

*Konsepsiya – amalda*

# NAVRO‘Z TUHFASI

**Respublika idoralararo ishchi guruhi tomonidan Qashqadaryo viloyatida olib borilgan o‘rganishlar davomida Ichki ishlar vaziri o‘rinbosari, general-mayor Bahodir Mirzarahimov IIV Xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta’minlash qo‘shinlariga qarashli Qarshi shahridagi 7256-sonli harbiy qismda bo‘lib, harbiy xizmatchilar, muddatli askarlarning jangovar-ruhiy holati, ularga yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdi.**





Tashrif yakunida namunali xizmati bilan hamkasblariga o‘rnak bo‘lib kelayotgan bir guruh harbiy xizmatchilarga «Qarshi city» majmuasidagi ko‘p qavatli uydan imtiyozli ravishda ajratilgan yangi xonadonlarning kalitlari tantanali ravishda topshirildi. Bu yaqinlashib kelayotgan Navro‘zi ayyom arafasida harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari uchun ajoyib sovg‘a bo‘ldi.

**Elbek ESHONQULOV,
harbiy qism komandirining
o‘rinbosari, mayor.**







*Surxondaryo viloyati*

# JAVOBGAR BO‘LMAY DESANGIZ

**Kundalik iste’mol oziq-ovqat mahsulotlari sifati aholi salomatligi uchun nihoyatda muhim. Afsuski, ba’zan sotib olgan mahsulotlarimiz sifatsiz yoki muddati o‘tganini ko‘rib, xunobimiz oshadi. Sotuvchining e’tiborsizligiyu insofsizligidan bir nolisak, ularni nazorat qiladigan mutasaddilardan ham yozg‘irmay o‘tmaymiz.**



Shu kabi holatlarning oldini olishda Surxondaryo viloyati IIB JXX JTSB karantin tadbirlarini ta’minlash bo‘linmasi xodimlari hamkor tashkilotlar bilan birgalikda qo‘shma reyd tadbirlari o‘tkazishmoqda. Yil boshidan beri dehqon bozorlarida 579 marta, mol bozorlarda 60, boshqa savdo obyektlari va yarmarkalarda 25, «Darband» YPX maskanida 54 marotaba reyd tadbirlari o‘tkazilib, veterinariya-sanitariya qoidalarini buzgani uchun 17 nafar fuqaroga nisbatan ma’muriy bayonnomalar rasmiylashtirildi.

Tadbirlar davomida olingan sifatsiz, iste’molga yaroqsiz bo‘lgan 259 kg go‘sht, 274 kg sut va sut mahsulotlari, 69 kg baliq, 161 kg noma’lum sharoitda tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlari va 597 dona tuxum olinib, belgilangan tartibda yo‘q qilindi.



Har bir nojo‘ya harakatning javobi bo‘lganidek, sifatsiz mahsulotlarni sotish, tarqatish orqali odamlarni aldash uchun ham qonuniy choralar belgilangan. Shunday ekan, javobgar bo‘lmay desangiz, sifatsiz mahsulot sotmang!

**Feruza RAHMONQULOVA,
«Postda» muxbiri.**

*Taqdimot*

# MATONATDAN SO'ZLOVCHI KITOB

**Ichki ishlar organlarida uzoq yillar samarali xizmat qilib, bugun yoshlarni vatanparvarlik, kasbga sadoqat ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo'shayotgan ustoz faxriylar doimo e'zoz va ehtiromga loyiq. Ularning tajribasi, ibratli hayot yo'llarini o'rganish ichki ishlar organlari safini malakali xodimlar bilan boyitishda muhim omil bo'ladi. Ana shunday tabarruk ustozlardan biri ist'efodagi general-mayor Telman Murodxo'jayevdir.**




Telman Salohiddinovichning hayoti matonat bilan yo'g'rilgan. Ayniqsa, uning korrupsiya, terrorizm, giyohvandlik kabi illatlarga qarshi kurashgani barcha xodimlarda katta qiziqish uyg'otishi shubhasiz. Yaqinda uning hayoti va xizmat faoliyatiga bag'ishlangan, IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamentining «Vaqt-Время» gazetasi tahririyati yetakchi mutaxassis-muharriri, kapitan Inomjon Rahimxo'jayev qalamiga mansub «Matonat manzili» nomli kitob nashrdan chiqdi. Kuni kecha mazkur kitobning taqdimot marosimi bo'lib o'tdi.



Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining o'rinbosarlari, general-mayor Azizbek Ikramov, polkovnik Yahyojon Abdulhakov, Telman Murodxo'jayevning yaqinlari, do'stlari, birga xizmat qilgan hamkasblari, faxriylar, shuningdek, Departament shaxsiy tarkibi ishtirok etdi.

Taqdimot marosimida Ichki ishlar vaziri o'rinbosari, general-mayor Azizbek Ikramov so'zga chiqib, Telman Salohiddinovichning hayoti, xizmat faoliyati, xususan, Jazoni ijro etish tizimida, Andijon va Samarqand viloyatlarida rahbarlik lavozimlarida amalga oshirgan ishlari borasida to'xtaldi. Tadbirga tashrif buyurgan mehmonlar ham o'zlarining samimiy fikr-mulohazalarini bildirishdi. Telman Murodxo'jayevning oddiy xodimdan general-mayor darajasigacha bosib o'tgan yo'li, Ichki ishlar vazirining o'rinbosari lavozimida amalga oshirgan xayrli ishlari, jinoyatchilikka qarshi murosasiz kurashgani, adolatli va to'g'riso'z rahbar bo'lganligi e'tirof etildi.

Tadbir davomida Ichki ishlar vazirligi Ashula va raqs ansamblining xushovoz xonandalari, mohir sozandalari tomonidan ijro etilgan dilrabo kuy-qo'shiqlar barchaga bayramona kayfiyat ulashdi.

**Shahrizod SHOKIROV,**
**IIV huzuridagi JIED Axborot xizmati boshlig'i, katta leytenant.**

*Hamkasblarimiz haqida*

# FIDOYI IZQUVAR

**Ichki ishlar organlari jinoyat qidiruv xizmatida kasbiga sadoqatli, fidoyi va shijoatli xodimlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ulardan biri Chirchiq shahar IIB JQB katta tezkor vakili, mayor Abbos Ochilovdir.**

Abbos Ochilov ilk xizmat faoliyatini Chirchiq shahar IIB Jinoyat qidiruv bo'limi tezkor vakili lavozimida boshladi. Izlanuvchan va tashabbuskor yosh xodim qisqa vaqt ichida hamkasblarining hurmatini qozondi. Jinoyatlarni «issiq izida» fosh etib, rahbariyatning ham nazariga tushdi.



...Qishning qahraton tunlaridan biri. Chirchiq shahridagi mahallalarning birida sukunat buzildi. Nafsiga erk bergan to'rt kimsa yolg'iz yashovchi 80 yoshli onaxonning uyiga bostirib kirib, uni do'pposlagancha, 7 million so'm pulini olib, juftakni rostladi.

A.Ochilovning tinimsiz sa'y-harakatlari natijasida mazkur jinoyatni sodir etishda gumonlanayotgan shaxslar shu mahallada yashovchi kimsalar bo'lib chiqdi. Ulardan biri avval ham bosqinchilik jinoyati uchun ikki marotaba sudlangan fuqaro edi. Tajribali izquvar uni qo'lga olish uchun uyiga borganida, hovli eshigi yopiq, ichkaridan qadam tovushlari eshitilardi. Darhol tirqishdan ichkariga qaragan Abbos jinoyatchi yelkasiga sumkasini osgancha orqa devordan oshib qochmoqchi ekanligini ko'rdi. Ammo gumonlanuvchi niyatiga yeta olmadi, tezda qo'lga olindi. Shundan so'ng uning sheriklari ham ushlanib, qonun hukmiga havola etildi.

Mayor A.Ochilov xizmat vazifasiga mas'uliyat bilan yondashib, jinoyatlarni qisqa fursatlarda fosh etishga astoydil harakat qilmoqda. Jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashishda samarali natijalarga erishayotir.

**Mixli SAFAROV,**
**«Postda» muxbiri.**

*Toshkent viloyati.*

*Ma'naviyat marshrutlari*

# ISMOIL SOMONIY maqbarasi



**O'rta Osiyoda Somoniylar davri me'morchiligining nodir namunalaridan biri bo'lgan bu tarixiy obida Ismoil Somoniy tomonidan bunyod etilgan.**

Ismoil Somoniy shaxsi haqida gapiradigan bo'lsak, u Buxoroda Somoniylar davlatiga asos solgan yirik siyosiy arbob hisoblanadi. Ismoil Somoniy 848-yil Buxoro shahrida tug'ilgan, 874-yilda somoniylarning Buxorodagi noibi, 888-yildan esa butun Movarounnahrga hokim bo'lgan. Ismoil Somoniy markaziy hokimiyatni mustahkamlash siyosatini olib borib, turli yerlardan ulamolar, adiblar, usta va hunarmandlarni Buxoroga to'plagan. Madaniyat rivojiga katta hissa qo'shgan. Bag'dod xalifalaridan ibrat olib, o'ziga ulkan maqbara qurdirgan. 893-yilda Tarozga yurish qilib shimoliy chegaralarni mustahkamlagan. 900-yilda Movarounnahr va Xurosonni birlashtirgan.

Ismoil Somoniy maqbarasi o'rta asrlarning rivojlangan davrida (IX–X asr), 864-868-yillar oralig'ida, hozirgi Buxoroning eski shahar qismida qurilgan.

Inshoot qabr vazifasini bajarganligi sababli, uning interyeri uch pog'onali (to'rtlik – to'rt devor, sakkizlik – devordan tomga o'tish qismi va gumbaz – tom ko'rinishidagi) bir xonali kvadrat shaklni tashkil qilgan.

Hozirgi kunda me'moriy inshoot atroflari bog'ga aylantirilgan. Bugungi kunda maqbara islom dunyosi ma'rifatparvarlari va allomalarining diqqat-markazida hamda turistlarning sayohatgohiga aylangan.

*Женщины в погонах*

# ГЛАВНОЕ – НАЙТИ ПРАВДУ

**Капитан Муниса Муродуллаева с юности мечтала служить в органах внутренних дел. Ее отец, Рустам Мусаев, был сотрудником подразделения охраны, в звании сержанта вышел на пенсию. Мама, Ойгуль Тошонова, – домохозяйка. В семье росли трое детей, Муниса была старшей.**



По окончании Академии МВД М. Муродуллаева стала следователем СО при УКД ОВД Сергелийского района столицы. Ее супруг, Абдулла Махкамов, служит в ГУВД города Ташкента. Основа их дружной семьи – взаимное доверие и уважение.

Муниса до сих пор помнит свое первое дело. Прохожие обнаружили новорожденного ребенка, завернутого в старое рваное одеяло, лежавшего рядом с мусорными баками, вызвали сотрудников ОВД. Удалось найти свидетелей, которые видели, как молодая женщина положила новорожденного на землю. Подозреваемая, Дилноза Л., так звали женщину, поведала о свалившейся на нее беде, раскаивалась, что совершила большую ошибку, бросив ребенка. Однако...

Муниса Муродуллаева в следственном отделе шесть лет и всегда придерживается правила своего наставника – старшего следователя СО при УКД ОВД Янгихаётского района подполковника Жамолиддина Джамилова: «Не зная правды, не делай выводы. Довести расследование до конца – главная задача».

Следователь координирует все этапы расследования дела. При этом важно чувствовать, что идешь по правильному пути, строить логические цепочки, ведущие к преступнику.

Героиня очерка считает, что часто «виновниками» преступного деяния являются гнев, агрессия. Нередко граждане оказываются замешанными в преступлении, желая быстро заработать, например, как Сабина М. Женщину попросили передать сумку человеку, который будет ждать ее около торгового центра. Она догадывалась, что там наркотики, но за это предложили немалые деньги, и девушка согласилась. Позже, на допросе у Мунисы Рустамовны Сабина поняла, в какой бездне она оказалась.

**Бибигуль МУРТАЗАЕВА.**

■ Андижанская область

# ПАТРУЛЬ ВЫХОДИТ НА МАРШРУТ

**Если поступило сообщение о том, что где-то произошла беда, ближайший к месту происшествия экипаж ППС или пеший наряд тут же поспешат на помощь. Задача стражей порядка – оценить ситуацию, принять возможные и необходимые меры или вызвать другие структуры – следственно-оперативную группу, территориальных инспекторов профилактики. И так ежедневно.**



***На снимке:*** *автопатруль – рядовые Дилшодбек Косимов и Бунёдбек Азимов.*

С начала текущего года нарядами патрульно-постовой службы по горячим следам раскрыто 17 преступлений, в числе которых кражи, грабеж, незаконный оборот наркотиков, мошенничество.

Сотрудники пешего наряда ППС в составе старшего сержанта Дониёра Саидова и рядового Иномиддина Омонова возле здания Центра государственных услуг задержали с поличным жителя областного центра Икбола Д., который украл из дамской сумочки смартфон стоимостью 1,5 миллиона сумов. Следственным отделом при УКД ОВД по городу Андижану в отношении Икбола Д. возбуждено уголовное дело по ч. 2 ст. 169 Уголовного кодекса Республики Узбекистан. Проводятся следственные мероприятия.

От зорких глаз рядовых Достонбека Кучкарова и Мухаммадали Низомиддинова не ускользнули манипуляции Хусана С., который при виде стражей порядка попытался спрятать под сиденье принадлежавшей ему «Джентры» некий предмет. В присутствии понятых стражи порядка произвели досмотр салона автомашины – под сиденьем был обнаружен пластиковый пакет с веществом, похожим на наркотик. По заключению экспертизы в пакетике находилось 3,55 грамма гашиша. В отношении Хусана С. возбуждено уголовное дело по ч. 2 ст. 276 Уголовного кодекса Республики Узбекистан.

Аналогичных примеров четкой, профессиональной работы стражей порядка можно привести немало.

**Борис КЛЕЙМАН,**
**корреспондент**
**«На посту».**
**Фото автора.**

*Qadriyat*

# NAVRO‘Z QO‘SHIQLARI

**Asrlar bo‘yi ezgulikka oshno dillarga bahoriy yangilanish, yasharish va tabiatning bokira go‘zalligi bilan uyg‘unlashish kayfiyatini baxsh etib kelgan Navro‘z ayyomi xalq og‘zaki ijodi namunalarini kuylovchi qo‘shiqchi, laparchi, baxshi-shoirlarga ham benihoya ulkan ilhom bergan. Shu bois, xalq og‘zaki ijodiyotida Navro‘z bayrami bilan bog‘liq ko‘plab qo‘shiq, terma va ashulalar yuzaga kelgan. Bunday tafakkur durdonalarida yilboshi bayrami baxsh etgan saodatli kunlar sururi madh etiladi.**

**Quyida Navro‘z bayramida ijro etib kelingan qadimiy xalq qo‘shiqlaridan ayrim namunalarni o‘qiysiz.**



## NAVRO‘ZGA KEL

Bor-ho,
Kel-ho,
Hamalim-ho,
Yo‘l qayda?
Yo‘l beyda,
Tezda chopib kel,
Yo‘lni topib kel,
Onang bilmasin,
Otang bilmasin,
Akang bilmasin,
Ukang bilmasin,
Opang bilmasin,
Singling bilmasin,
Kuylagani kel,
Navro‘zga kel ho-o-o!

## DOIRANI CHALING, JON MOMO

Doirani chaling, jon momo,
O‘yinga tushsin qiz bola.
Qiz bolaning sochiga
Yarashibdi chuchmoma.

Somsa yopdim yalpizdan,
Omonlig‘-e, somonlik.
Yuz Navro‘zni o‘tkazgan,
Momolarga beraylik.
Navro‘z kuni, qizlarjon,
O‘sma bargin teraylik.
Sochga taqib gul-marjon,
Qoshga o‘sma qo‘yaylik.

## BAHOR KELAR, YOZ KELAR

Navro‘z keldi, yoz keldi,
Turna keldi, g‘oz keldi.
Qo‘shiq aytgan shu yordan
Bulbuldek ovoz keldi.

O‘rdak kelar, g‘oz kelar,
Bahor kelar, yoz kelar.
Ikkimizni bir ko‘rib,
Yonib o‘lsin o‘zgalar.

## NAVRO‘Z «YOR-YORI»

Gul Navro‘z chechagida
Belanchak bor, yor-yor.
Belanchakning boshida
Kelinchak bor, yor-yor.

Kelinchakning yo‘liga
Gullar sochay, yor-yor.
Shu Navro‘zda suyganimga
Ko‘nglim ochay, yor-yor.

Shunda olam munavvar
Bo‘lg‘usidir, yor-yor.
Sevishganlar sho‘x quvnab,
Kulgusidir, yor-yor.



## BOYCHECHAK

Boychechak chiqibdi, bugun Navro‘z ekan,
Hamma bir-biriga jigarso‘z ekan,
Olam ham barobar kecha-kunduz ekan,
Boychechak chiqibdi, bugun Navro‘z ekan.

Yangi yilingiz muborak bo‘lsin, hoy bobo,
Yangi yilingiz muborak bo‘lsin, hoy momo,
Yangi yilingiz muborak bo‘lsin, hoy ona,
Boychechak chiqibdi, bugun Navro‘z ekan.

Hoy, bog‘bon bobo, niholga bersin baraka,
Hoy, dehqon bobo, dalangga bersin baraka,
Hoy, cho‘pon bobo, qo‘rangga bersin baraka,
Boychechak chiqibdi, bugun Navro‘z ekan.



## OMONLIK, HEY OMONLIK

An’anaga ko‘ra, har yili ko‘klamda ilk bor sumalakni tatib ko‘rayotgan kishi «Omonlik, omonlik, hech ko‘rmaylik yomonlik» deb, bu bahoriy ne’matni jimjilog‘i bilan olib yesa, yil barakali keladi, deb umid qiladilar.

Quyidagi qo‘shiq ham sumalakni ilk bor tatib ko‘rish udumi bilan bog‘liqdir.

Omonlik, hey, omonlik,
Yetdik Navro‘zga.
Unutilsin yomonlik,
Qut ber rizq-ro‘zga!

Yurtga tinchlik so‘rayman,
Olamga chiroy.
Shu ayyomni qutlay deb,
Undirdik bug‘doy.

Sumalak bir bahona,
G‘animat diydor.
Shu urfimiz shohona
Oqibatga yor.

Zamonga ming shukrkim,
Yetdik Navro‘zga.
Maysa o‘sibdi durkun,
Suraylik ko‘zga.





■ Қашқадарё вилояти

# БАРЧАНИНГ ИШОНЧИН ҚОЗОНИБ...

**Толиб Эшонқулов Қуролли Кучлар сафидаги шартнома асосидаги илк фаолиятини 2005 йилда ИИВ Қоровул қўшинларига қарашли Қашқадарё вилоятида жойлашган 7533-ҳарбий қисм рухсатномалар бюроси навбатчиси лавозимидан бошлади. Соҳа сир-асрорларини ўргатишдаги устозлари деб истеъфодаги подполковник У. Юсупов ва истеъфодаги сержант Х. Муродовларни билади.**




Хизмат давомида орттирган тажрибаси ва малакаси сабабли, орадан икки йил ўтиб, шу ҳарбий қисм 3-тоифали назоратчиси лавозимига тайинланди. Эндиликда, ҳарбий қисм назоратчилари кичик сержантлар Д. Соҳибов ҳамда Ш. Набиевлар уни устоз сифатида эъзозлашади.

– III даражали сержант Т. Эшонқулов ўзининг касбий маҳорати ва ватанпарварлиги билан ҳарбий қисмда ҳурмат қозонган, – дейди ҳарбий қисм батальон командири, майор Руслан Бозоров. – Китобни жуда яхши кўради. Меҳнатсевар ва ташаббускор ходим.

– Шахсий таркибни ҳар қандай вазиятга руҳан тайёрлаш мақсадида уларнинг касбий, жанговар ва жисмоний тайёргарлиги ҳамда маънавий-маърифий билимларини мунтазам оширишга эътибор қаратаман, – дейди биз билан суҳбатда 2-тоифали назоратчи, секция командири Толиб Эшонқулов. – Шунингдек, хизматга келган ёш аскарларнинг жанговар тайёргарлиги, ҳарбий техника ва қурол-аслаҳаларни мукаммал ўрганиш борасидаги кўникмаларини ошириш учун ўтказилаётган турли машғулот ва тадбирлар ҳам уларнинг билим савиясининг кенгайишида муҳим омил бўлмоқда.

Инсон ҳамиша орзу истаклар билан яшайди. Толибжон ҳам турмуш ўртоғи Матлубахон билан икки нафар фарзандини яхши орзу-ниятлар билан тарбиялаб воярга етказмоқда. Ниёзали ота ҳамда София ая эса ўғлининг бахту камолини кўрганидан боши осмонда.

**Содиқ РАҲИМОВ,**
**«Postda» мухбири.**

■ Фарғона вилояти

# «Яшил макон» – амалда

**«Яшил макон» умуммиллий лойиҳаси авж палласига кирган шу кунларда мазкур хайрли тадбирга ички ишлар органлари ходимлари ҳам ўз ҳиссасини қўшишмоқда.**

Бағдод тумани ИИБ шахсий таркиби томонидан лойиҳа доирасида 3-сектор ҳудудида кўчат экиш ишлари амалга оширилди.

Соҳа ходимлари бир кунда 100 тага яқин манзарали ҳамда мевали дарахт кўчатларини ўтказдилар.

Ободонлаштириш ва кўкаламзорлаштириш ишлари давом этмоқда.

**Ўз мухбиримиз.**



*Грани мастерства*

# ЕЕ СУДЬБОНОСНЫЙ ВЫБОР

**Профессионализм и стремление к совершенствованию всегда отличали настоящих мастеров своего дела, которые, несмотря на трудности, упорно идут к поставленной цели. Эти люди прилагают максимум усилий в решении поставленных задач, приносят пользу обществу, вносят вклад в развитие государства, процветание народа.**



В органах внутренних дел немало профессионалов, беззаветным трудом снискавших почет и уважение окружающих. К ним без сомнения можно причислить главного специалиста отдела информационных технологий, связи и защиты информации ГУВД г. Ташкента подполковника Юлию Ратомскую. Общение с этой замечательной женщиной – чуткой, внимательной, обладающей широким кругозором и знаниями, без преувеличения можно назвать настоящей журналистской удачей.

В начале становления Ю. Ратомская сделала судьбоносный выбор в пользу органов внутренних дел. Служба в подразделениях правоохраны сопряжена с определенными рисками, психологическими и физическими нагрузками, зачастую необходимостью принимать безошибочные решения. Тем не менее хрупкая девушка без сомнения встала в ряды органов внутренних дел и на сегодняшний день достигла весомых результатов, являясь одной из лучших в своем деле.

– Мои одноклассницы буквально горели желанием поступить на службу в органы внутренних дел, это желание передалось и мне, – улыбается Юлия Евгеньевна. – Я окончила Ташкентский финансовый институт, после – Академию МВД Республики Узбекистан и вот уже более 26 лет в ГУВД г. Ташкента. Хочу сказать, что мама, Людмила Ратомская, – мой добрый наставник, родной человек, которому я доверяю. Она многие годы проработала в органах внутренних дел и в звании подполковника вышла на заслуженный отдых.

Мир не стоит на месте, он постоянно меняется, а вместе с ним меняемся и мы. Вот и сегодня, когда научно-технический прогресс достиг заоблачных высот практически во всех направлениях человеческой деятельности, нововведения, в том числе IT-технологии, взяты на вооружение в органах внутренних дел.

– Эта сфера активно и всесторонне развивается, – говорит героиня очерка. – Внедряются современные технологии, среди которых электронные гаджеты, ставшие огромным подспорьем в работе сотрудников органов внутренних дел, проводная, мобильная и радиосвязь... К нам приходит талантливая молодежь. Отрадно то, что все они стремятся совершенствовать полученные знания и навыки. Особенно радуются, когда видят результаты успешного труда. Это вдохновляет их на новые достижения.

Несмотря на то, что большая часть жизни посвящена служебной деятельности, Юлия Евгеньевна всей душой и сердцем любит дом, семью. Она хранит и оберегает от невзгод семейный очаг. А еще очень любит ухаживать за цветами, и это верный признак любви к природе, красоте, гармонии.

**Георгий ПЕТРОСЯН,**
**корреспондент**
**«На посту».**

*Фахрийлар – фахримиз*

# «АНА, КОМИССАР КАТАНИ КЕЛЯПТИ...»

**Қийинчилик – бу аслида сабоқ, мукофотдир. Негаки, ҳар синов ўтаганимизда онгимизда янги англашлар, янги тажрибалар тўплаймиз ва шу орқали биз бир карра юксаламиз. Ҳаётнинг янгича қиёфаларини шу тарзда кашф қилиб борамиз.**

**Қаҳрамонимиз – истеъфодаги майор Муҳитдин Хўжаев ҳам умрининг 35 йилини ички ишлар органлари жиноят қидирув йўналишида хизмат қилиш билан ўтказди.**

– Инсонга куч-қувват фақат яхшиликка бўлган ишонч ортидангина келаркан, – дейди истеъфодаги майор Муҳитдин Хўжаев. – Адолатнинг тантанасига доим ишонганман. Ана шу ишонч, яқинларимнинг қўллаб-қувватлови менга умид, куч берган.

М. Хўжаев хизмат фаолияти давомида кўплаб жиноятларни фош этишда фаол қатнашди. Жиноятчиликка қарши курашиш учун машаққатдан қочмади. Аксинча, бошлаган ишини доим охирига етказишга интилди. Ушлаган жойини узиб олмасидан, натижага эришмасидан ҳаракатдан тўхтамади. Ана шу тиришқоқлиги, касбга бўлган садоқат туфайли халқ орасида Муҳитдин Хўжаев ўша машҳур фильмдаги қаҳрамон — «Комиссар Катани» номи билан танилди. Одамлар Муҳитдин акани кўрганида «Ана, комиссар Катани келяпти», дейишарди.

Муҳитдин Хўжаев 2000 йил Сариосиё тумани тоғли ҳудудларида бўлган жангларда ҳам сафдош биродарлари билан елкама-елка туриб жанг қилди. Кейинчалик, Узун тумани ИИБдан майор унвони билан пенсияга чиқди. Аммо бир йил ўтиб автоҳалокатга учради. Оғир операцияни бошидан ўтказди, ушбу бахтсиз ҳодисада бир оёғидан айрилди. Уйда ўтириш Муҳитдин ака учун жуда оғир эди. Лекин дардга таслим бўлмаслик керак. Қаҳрамонимиз ясама оёқ қўйдиришга қарор қилди. 15 йил ясама оёқ билан меҳнат қилишдан тўхтамади. 2018 йилда Ички ишлар вазирлигининг кўмаги билан хорижда жарроҳлик амалиётини ўтаб қайтди.



Ҳаётдаги қийинчиликларга қарамай, қаҳрамонимиз ҳаракатдан тўхтамади. Ҳозирда Узун тумани ИИБ Фахрийлар кенгаши раиси сифатида кексаларнинг бошини бириктириб, ёш ходимларга тажрибаларини ўргатиб келмоқда. Унинг ташаббуси билан туман ИИБда «Фахрийлар мактаби» фаолияти йўлга қўйилди. Қолаверса, Узун тумани ИИБ тарихига бағишланган китоб чоп этилди.

**Қаҳрамонимиз 65 ёшни қаршилаган бўлса-да, ҳамон томорқада ишлашни канда қилмайди. 2 ўғил, 2 қизни вояга етказиб, уйли-жойли қилган отахон бугун набиралари билан биргаликда вақт ўтказишни, уларнинг таълим-тарбияси билан шуғулланишни хуш кўради.**

– Икки нафар набирам менинг изимдан боришга аҳд қилган, – дейди Муҳитдин Хўжаев. – Албатта, бундан жуда қувондим. Шу боис уларнинг жисмоний тайёргарлигига алоҳида эътибор қаратиб, ўқишларини ҳам ўзим назорат қиламан. Насиб бўлса, Ички ишлар вазирлиги Академиясида ўқиб, шу соҳа вакили бўлишса, уларден насиҳатимни, ёрдамимни аямайман.

Яхши ниятларига эш бўлган ҳолда, Муҳитдин акага куч-қувватдан толманг, деймиз. Ўқувчиларимизга, ёш ходимларга эса шундай матонатли инсондан ўрнак олинг, деб қоламиз.

**Феруза РАҲМОНҚУЛОВА,**
**«Postda» мухбири.**
*Сурхондарё вилояти.*

*Есть такая служба*

# НА СВЯЗИ – «102»



**Ежедневно в службу «102» поступает более 1 200 звонков, которые круглосуточно обслуживают 5 операторов, то есть один оператор отвечает на 200-250 вызовов. Обязаны ли сотрудники реагировать на все обращения? Легко ли дозвониться на короткий номер «102»? На эти и другие вопросы ответил начальник подразделения майор Ойбек Тилявов.**

– Наверное, каждый житель области ощутил на себе модернизацию службы «102», – говорит О. Тилявов. – Если раньше звонки принимали сотрудники дежурной части при РОВД и люди жаловались, что не могут дозвониться, то теперь вызов на короткий номер переадресуется в автоматизированный информационный центр при Ситуационном центре. Уникальность системы в функции обратного вызова, Callback, который позволяет дозвониться до абонента в тот момент, когда освободится оператор. Кстати, все операторы переведены на 24-часовой рабочий день, что обеспечивает их максимальное нахождение на пульте. Последние принимают сообщения, заполняют электронную карточку, которая мгновенно пересылается для реагирования в район, где случилось ЧП. Дежурный, получив информацию, сразу же направляет ближайший наряд. А оператор «102» в это время продолжает выяснять другие обстоятельства: место, время, приметы, количество нарушителей и т.д. Если есть необходимость, оператор связывается с другими ведомствами (МЧС, «скорая помощь»).



С начала года в автоматизированный информационный центр поступило более 75 тысяч звонков, более 10 тысяч из которых – повторные, около 19 тысяч – ложные, но есть и «ошибочные» – их более 4 600. Среди обращающихся хватает и тех, кто хочет получить справочную информацию, юридическую консультацию у оператора. В этом случае гражданам предоставляются телефоны соответствующих подразделений органов внутренних дел и других справочных служб. Таких звонков насчитывается более пяти тысяч. Около 26 тысяч вызовов поступило от граждан, информирующих о каком-либо нарушении или происшествии, свыше 10 тысяч – от очевидцев преступлений.

– Мы всегда готовы помочь – это наша работа, – говорит майор Ойбек Тилявов.

**Замира БАЛТАЕВА,**
**корреспондент «На посту».**
**Фото автора.**
*Самаркандская область.*

# MA'RIFAT BO'STONI

## HAYOTNING TUTUQ BELGISI

▶ Dunyoda eng arzon mol – axloqsiz kishilarning sen haqingda aytgan fikri. Uning uchun savdolashma.

▶ Baxting qanchalik sokin va sassiz bo'lsa, shuncha uzoqqa cho'ziladi.

▶ Kema suv yuzida turganda emas, ichida suv bo'lganda cho'kadi. Xuddi shunday, atrofda yuz berayotgan arzimas hodisalar emas, ichingdan nimalar kechayotgani muhim.

▶ O'zgartirish kerak bo'lgan insonlarni emas, tarbiyang, tabiating va dunyoqarashingga mos kishilarni tanla. Chunki odamni o'zgartirish qiyin, hatto imkonsiz.

▶ O'z fikringga ega bo'liboq ko'pchilikka yoqmaslikni boshlaysan.

▶ Biron nima deyishdan oldin o'ngacha, kimningdir ko'nglini og'ritishdan oldin yuzgacha, qo'l ko'tarishdan oldin minggacha sana.

▶ Xatolar – hayotning tutuq belgisi. Ularsiz xuddi matndagi kabi mazmun bo'lmaydi.

▶ Kamalakni ko'rish uchun yomg'ir tinishini kutmoq lozim.

▶ Birovning kechmishini muhokama qilma. Chunki hali o'z kelajagingni bilmaysan.

## ISTAK KUCHI

Kunlardan birida shogird ustozining yoniga kelib, undan hayotda o'z maqsadiga erishish yo'lini o'rgatishni so'rabdi. Shunda donishmand unga suv to'ldirilgan idishga tushib, boshi bilan sho'ng'ishni buyuribdi.

Yigit uning aytganini qilibdi. Shunda ustoz bor kuchi bilan uning boshini ushlab, suvdan chiqishiga to'sqinlik qilibdi. Shogird havo yetishmay, zo'r berib o'rnidan turishga urinib, rosa tipirchilabdi.

Axiyri, katta kuch to'plab, qarshilikdan ustun kelibdi va suvdan chiqib, chuqur-chuqur nafas olibdi.

– Qo'llarim kuchiga qarshi borishga uringan oningda nimani xohlading? – so'rabdi donishmand.

– Nafas olishni.

– Yana nimani?

– Boshqa hech narsa haqida o'ylaganim yo'q.

– Mana shu yagona istak kuchidir. Agar xuddi shunday kuch bilan muvaffaqiyatni istasang, albatta, unga erishasan.

## SULTON NIMA DEDI?



Bir podshoh vazirini yoniga chaqirib unga nimadir debdi. Ularni kuzatib turganlar podshoh vazirga nima deganiga qiziqishibdi. Podshohning yonidan chiqqan vazirning yoniga yugurishibdi. Vazirdan:

— Sulton bugun falon ish haqida senga nima dedi? — deb so'rashibdi.

— Siz eshitmay qolmaysiz. Albatta, eshitasiz, — debdi vazir.

— Ammo, sen vazirsan. Senga aytgan gaplarni podshoh bizga aytarmidi? — deyishibdi ular.

Vazir odamlarga qarab qo'yib:

— Shuning uchun ham sulton menga ishonib aytgan bu gapni. Shunday ekan, nega yana so'rayapsiz? — debdi.

HAMMAGA HAM SIR AYTILAVERMAYDI. AGAR AYTILADIGAN BO'LSA, U HAM BOSHQASIGA AYTADI. UCHINCHI ODAM ESHITGANDAN SO'NG SIRNING SIRLIGI QOLMAYDI.

**«Tarbiya kitobi»dan.**

## EZGULIKNING QUVVAT MANBAI



– Dunyoda yovuzlik nima uchun keng tarqalgan, bilasanmi?

– Xo'sh, nima uchun ekan?

– Yovuzlikni faol tarzda moliyalashtiradiganlar bor.

– Yo'g'-e? Ezgulik-chi?

– Yo'q, u moliyalashuvga muhtoj emas. U insonning vijdonidan, adolat va haqiqatdan quvvatlanadi.

– Ha-a.

– Bilasanmi, nega eng oxirida ezgulik g'alaba qozonadi?

– Nega?

– Chunki pul ertami-kechmi tugaydi, vijdon, adolat va haqiqat esa boqiydir...



## TANLOVDA ADASHMA!




Bir korxona rahbari o'zining yonida bir necha yillar davomida yordamchi bo'lib ishlagan ayolni nafaqaga kuzatardi. U sodiq va fidoyi ishchisi kelgusi hayotida qiyinchilik chekmasligi uchun bir necha million mablag' hadya qilmoqchi bo'ldi. Shunda hayrat to'la ko'zlari bilan boqqan yordamchi:

– Nimalar qilyapsiz? Nima uchun? – dedi. – Xafa bo'lmang-u, lekin men qarilik gashtini surish uchun yetarli mablag' jamg'arib qo'yganman.

– Qanday qilib? – hayron bo'ldi boshliq. – Axir, siz arzimas maosh evaziga ishlagansiz. Buncha mablag'ni qanday to'pladingiz?

– Men har bir majlisda sizning yoningizda ishtirok etdim. Siz telefon orqali bo'sh yer maydonlari va qandaydir qimmatli qog'ozlarni sotib olgan paytingiz men ham kichik hajmda bo'lsa ham xuddi shu ishni qildim. Men har bir harakatingizdan nusxa oldim. Shu tariqa, siz million, men esa yuz ming so'm foyda oldim. Siz milliardlab mablag' topganingizda esa mening millionlarim bo'ldi!

*Hayotiy saboq:* Atrofingda qanday insonlar bo'lsa, sen ham ular kabi bo'lasan. Odamlar bor: ba'zilari pashsha, ba'zilari esa bolari! Asalari hamma vaqt seni gullar sari boshlaydi! Aqlli va yaxshi insonlar bilan rivojlanasan, orzu-maqsadlarga erishasan. Yomonlar bilan har jabhada salbiy xislat, niyat va natijalarni orttirasan. Shunday ekan, atrofingdagi insonlarni to'g'ri tanla, o'zing ham ular uchun yaxshi tanlovga aylan!

## SUV IRODASI

Bir kuni ustoz o'z shogirdlariga:

– Iroda bobida suvdan o'rnak olishingizni istayman, – dedi.

– Suvda ham iroda bormi, u qanday bo'ladi? – so'radi shogirdlardan biri qiziqib.

– Bor. Misol uchun, suvning yo'lini chapdan to'ssangiz, u o'ng tomonga intiladi, o'ngdan to'ssangiz, chapga qarab oqadi. Uning yo'lini butunlay to'g'onlab qo'ysangiz, suv ko'kka qarab yuksaladi va olg'a ildamlash istagidan aslo voz kechmaydi.

**Sahifani Gulchehra AZIMOVA tayyorladi.**

*Sifatli ta'lim – taraqqiyot poydevori*

# TA'LIM-TARBIYADA SHARQONA FALSAFANING O'RNI

**2023-yilning «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili» deb nomlanishi yurtimizdagi barcha islohotlar inson va uning manfaatlarini himoya qilish, ta'lim sifatini oshirishga qaratilganligiga amin bo'lamiz. Biz mamlakatimizda sifatli ta'limga erishishda Sharq falsafasi, madaniyatining ahamiyati haqida so'z yuritmoqchimiz.**



Bugungi kunda insoniyat oldida turgan global muammolarni hal qilish uchun yangi bilimlar kerak. Ularning yagona manbai insonning intellektual salohiyatidir. Zamonaviy ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun G'arb va Sharq ta'lim tizimlari o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish zarur. Ushbu sohada mavjud bo'lgan jiddiy muammolarni sharqona falsafa yordamida bartaraf qilish mumkin. Ta'lim tizimidagi yechimini kutayotgan masalalarni sharqona tarbiya ko'magisiz hal etib bo'lmaydi.

Insonning ta'limga bo'lgan qarashlari hozirgi kunda qanday? Bu masala faylasuflar, sotsiologlar va tahlilchilar tomonidan faol muhokama qilinmoqda. Sharq va G'arb ta'lim tizimlari o'rtasidagi munosabatlar va ularning yagona jahon ta'lim makoniga integratsiyalashuvini o'rganish alohida ahamiyatga ega. Bizning asrimizda ta'lim jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy hayotida katta rol o'ynaydi.

**Sharq ta'limining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shaxsning ma'naviy kamoloti va axloqiy o'zini o'zi takomillashtirishiga e'tibor qaratishdir.**

G'arb dunyoni texnik, oqilona tushunishga, Sharq esa intuitiv, sezgilar orqali anglashga ko'proq moyil. Sharq falsafasini, sharqona ta'limni zamonaviy ta'lim bilan uyg'unlashtirib, bunda har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish darkor.



Olimlarning qayd etishicha, so'nggi yillarda Sharq falsafasiga qiziqish ortib, Sharq tillarini o'rganuvchi mutaxassislar ko'paymoqda. Chunki Sharq mutafakkirlari inson tabiatining mohiyatiga kirib borishga, tarbiyaning ijtimoiy va biologik jihatlarini hisobga olishga harakat qilganlar. Insonning ijtimoiy mohiyatiga alohida ahamiyat beriladi. Sharqona ta'limning asosiy maqsadi insonning zamonaviy bilimlar bilan bir qatorda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni egallashiga ko'maklashishdir. Sharq ta'limining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shaxsning ma'naviy kamoloti va axloqiy o'zini o'zi takomillashtirishiga e'tibor qaratishdir.

Zamonaviy oliy ta'limning umumiy metodologiyasida inson va dunyoni uyg'unlikda, birlikda ko'rish muhim o'rin tutadi. Yangi metodologiya esa yangi o'qitish usullarini, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini talab qiladi. Birinchi navbatda, bu texnologiyalar fundamental va amaliy fanlar yutuqlarining integratsiyalashuvi asosida vujudga keladi. Bunday yutuqlarning ustun jihati o'qitishda eng so'nggi uslublardan foydalanish, bo'lajak mutaxassislarni dunyo va insonni yaxlit tushunishga, insonni insoniyat bilan uyg'unlikda idrok etishga yo'naltirish imkonini beruvchi yagona axborot tizimini yaratishdir.

Ta'lim tizimida yangi standartlarni belgilash ko'pchilikning fikri hisoblanadi. Ehtimol, yaqin kelajakda bilimlar, madaniyatlar va texnologiyalar jamlanmasini izchil tizimga keltirish zarur bo'lar. Zamonaviy ta'limning bir xil darajada muhim muammosi bu ta'limni insonparvarlashtirishdir.

YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra, yaqin kelajakda psixologiya yetakchi fanga aylanadi. Ko'pgina talabalar, sotsiologik tadqiqotlarga ko'ra, aqlga, intellektga ustunlik berishsa-da, asosiy e'tibor intellektga emas, balki insonning ruhiga qaratilmoqda. Bu esa Sharq falsafasining asosiy xususiyati hisoblanadi.

**Abbosxon XAYRIDINOV,**
**iste'fodagi podpolkovnik.**

*Halollikni shior qilgan xodimlar*

# HAYDOVCHI TUSHUNISHNI ISTAMADI

**Korrupsiya jamiyatda adolat mezonlarini butkul izdan chiqaruvchi illatdir. Mamlakatimizda bu turdagi jinoyatga qarshi kurashishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, ichki ishlar organlari tizimida ham mazkur masala ustuvor ahamiyat kasb etayotir.**

Jamiyatimizda «Pulning qarshisida tiz cho'kmaydiganning o'zi yo'q» qabilida fikr yuritadiganlar topiladi. Jizzax viloyatining Do'stlik tumani Alisher Navoiy nomidagi mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi U. R. shundaylar sirasidan.



Viloyat IIB YHXB YPX otryadi 2-safarbar guruhi yo'l-patrul xizmati inspektori, kichik serjant Ulug'bek Donishev Do'stlik tumani hududida U. R. boshqaruvidagi «Lacetti»ni to'xtatganida uning mastligini sezib qoldi. Haydovchining spirtli ichimlik ta'sirida ekanligini alkotestr ham tasdiqladi.

YPX inspektori avtoulovni jarima maydoniga joylashtirib, holat bilan bog'liq hujjatlarni rasmiylashtirishga kirishdi. Bunday holatda kattagina jarima to'lashi, uzoq muddatga mashina haydash huquqidan mahrum bo'lishidan xavotirlangan fuqaro qanday bo'lmasin, ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirmaslik va mashinani jarima maydonidan olib chiqib berish evaziga pora taklif qildi. Kichik serjant haydovchiga bunday xatti-harakatining huquqiy oqibatlarini tushuntirdi. Ammo u tushunishni istamadi...

Hamkorlikdagi tezkor tadbirda kichik serjant U. Donishevga 400 AQSH dollari miqdorida pora bergan haydovchi ashyoviy dalillar bilan ushlandi. Xullas, U. R. noto'g'ri yo'lni tanladi va shunga yarasha jazosini oldi.

**Alijon ABDUSATTOROV,**
**«Postda» muxbiri.**

*Jizzax viloyati.*

*Salomatlik saboqlari*

# POLLINOZ YOXUD GUL CHANGIDAN EHTIYOT BO‘LING!

**Bahorni hamma sog‘inib kutadi. Biroq yon-atrof yashillikka burkanib, daraxt-u maysalarning gulga kirishi pollinoz kasalligiga chalingan bemorlar salomatligiga ziyon yetkazadi. Bu juda keng tarqalgan surunkali allergik xastalik turi bo‘lib, u turli o‘simliklarning gul changlari natijasida yuzaga keladi va asosan burun shilliq pardalari, yuqori nafas yo‘llari hamda ko‘z kon’yunktivasiga ta’sir ko‘rsatadi.**





Pollinoz burunning qichishishi, bitishi yoki ko‘p miqdorda oqishi, ko‘z achishishi, qizarishi va yoshlanishi, aksirish, ba’zan yo‘tal hamda tanada toshmalar toshishi bilan kechadi. Qolaversa, bunday alomatlar ayrim hollarda xavfli kasallik hisoblangan bronxial astmaning boshlanish davri ham bo‘lishi mumkin. Pollinozning kuchayishi mavsum bilan bog‘liq bo‘lib, kasallik asosan bahor va kuz mavsumida bezovta qiladi.

Xo‘sh, bunday alomatlar aynan allergik xastalik belgisi ekanligini qanday bilsa bo‘ladi? Albatta, buni maxsus qon tahlili yordamida aniqlash mumkin. IgE testi – shulardan biri. O‘z navbatida, uning umumiy va maxsus turlari mavjud bo‘lib, masalan, umumiy IgE bemorda allergiya bor yoki yo‘qligini ko‘rsatsa, maxsus IgE testi orqali aynan nimalarga allergiya mavjudligini aniqlasa bo‘ladi. Bunday tekshiruv va tahlillar uchun allergologiya markazlariga murojaat qilish lozim. Umuman, allergik kasalliklar profilaktikasi va ularni davolashda ratsional ovqatlanish tartibi hamda sog‘lom turmush tarziga rioya etishning ahamiyati benihoya katta.

Kasallik o‘simlik gul changlaridan tashqari, oziq-ovqat mahsulotlari (ayniqsa, sitrus mevalar), dori vositalari, maishiy kir yuvish vositalari ta’sirida ham kelib chiqishi mumkin. Inson pollinoz kasalligidan saqlanishi uchun gigiyena qoidalariga to‘liq rioya qilishi lozim. Ya’ni, vaziyatdan kelib chiqib himoyalanish usullarini ishlab chiqish darkor. Masalan, o‘simlik changlaridan himoyalanishning eng samarali va ishonchli vositasi sifatida bir martalik yuz niqoblarini taqish, mavsum paytida bir kunda kamida 5 martagacha qo‘l va yuzlarni yuvish kerak. Uy hayvonlari bo‘lgan xonadonlarda esa hovlini tez-tez namlatib turish va chang ko‘tarilmaslik choralarini ko‘rish lozim.

Yodingizda bo‘lsin, sitrus mevalar, asal, yong‘oq, pista, shaftoli, qulupnay, shuningdek, qizil mahsulotlar allergiya chaqiradi. Biron allergiya turini boshdan kechirayotgan bemorda ikkinchi allergiya ro‘y bermasligi uchun parhez talab etiladi. Har qanday allergik reaksiya mahalida ko‘proq suyuqlik ichish hamda dori preparatini qabul qilishdan oldin, albatta, shifokor-allergologga murojaat etib, uning ko‘rsatmalariga qat’iy amal qilish lozim.

**Rovshan MUXAMEDOV,**
**IIV Markaziy poliklinikasi shifokori.**

# ЧЕМ ПОЛЕЗНЫ ЗАПЕЧЕННЫЕ ОВОЩИ

**Правильное питание современного человека невозможно представить без употребления в пищу овощей, которые дают нам витамины, микроэлементы и антиоксиданты. Разберем, какие именно овощи должны быть на столе.**



Эти продукты содержат весь спектр водорастворимых витаминов и предшественника жирорастворимого витамина А – бета-каротин. Больше всего бета-каротина в ярких оранжевых моркови, тыкве. Также важен для здоровья витамин С, которого много в капусте (особенно квашеной), болгарском перце всех цветов. Большое количество витамина $B_9$ (фолиевой кислоты) содержится в цветной капусте и бобовых.



Научно подтверждено, что человеческий организм отлично усваивает витамины из натуральных источников, и, если нет никаких генетических нарушений усвоения витаминов и перехода их в активную форму, то достаточное количество разнообразных овощей в рационе может полностью покрывать наши суточные потребности в водорастворимых витаминах.

Недавно специалисты английского Института исследований пищи пришли к выводу: из той же вареной моркови мы усваиваем в 5 раз больше каротиноидов, чем из сырой, а это значит, что подвергнутые термической обработке овощи очень полезны.

Настоящий компромисс между полезной и вкусной едой – запеченные овощи. Для запекания подходят абсолютно все плоды и корнеплоды, но лучше всего таким способом готовятся те, которые имеют плотную структуру. Например, картофель, тыква, батат, кабачки, баклажаны, болгарский перец.

Не солите их перед тем, как отправить в духовку, поскольку соль вызывает выделение сока: если их предварительно подсолить, то они получаются вялыми, без хрустящей корочки. Солите непосредственно перед подачей на стол. Также не рекомендуется чистить овощи, которые вы планируете подавать запеченными, просто обработайте жесткой щеткой кожуру и хорошенько потрите или обсушите продукты.

**Рецепт**

**Ингредиенты:** 500 г баклажанов, 500 г кабачков, 300 г томатов, 200 г зеленого сладкого перца, 70 г репчатого лука, 5 г базилика фиолетового цвета, 30 г оливкового масла, 2 зубчика чеснока, крупная соль.

**Приготовление:** нарежьте баклажаны кружочками и вымочите в течение 15 минут в подсоленной воде. Далее полукольцами нарежьте кабачки и зеленый перец, а лук и помидоры – дольками.

Для запекания вам понадобится керамическая форма. Смажьте ее дно маслом и выложите овощи. Полейте их оливковым маслом. Посыпьте рубленой зеленью и накройте фольгой. Запекайте при температуре 200 °С примерно в течение часа. И только в самом конце положите к овощам дольки чеснока.

Овощи получаются мягкими, сочными и ароматными.

*Jinoyat tafsiloti*



# SOXTAKORNING SIRI OCHILGANDA...

**Guli Asanova (ism-familiyalar o'zgartirildi) Nukus shahridagi yengil avtomobillarni lizingga beradigan mas'uliyati cheklangan jamiyatida operator lavozimida ishlardi. Dastlabki paytlari binoyidek ishlab kelgan Guli bora-bora lizing to'lovi uchun kelib tushayotgan katta miqdordagi pullarni ko'rib, xayoli buzildi. To'lov varaqalaridan bir nechtasini qalbakilashtirsa, hech kim bilmaydi, deb o'yladi.**

Mas'uliyati cheklangan jamiyatdan «Spark» avtomashinasini 3 yil muddatga lizing asosida olgan S. Aliyev avvaliga to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirib kelayotgandi. Keyinchalik, ma'lum sabablarga ko'ra, ikki oy to'lovni o'tkaza olmadi. Biroz vaqt o'tib, jamg'argan pullarini to'lash uchun lizing jamiyatiga kelganida G. Asanova u keltirgan 5 million 200 ming so'm pulni olib qoldi. Lekin mablag'ni jamiyat hisob raqamiga kirim qilmasdan, mashina egasiga qalbaki kvitansiya tutqazdi. Uning pullarini esa o'z ehtiyojiga sarfladi.

Bu qilmishidan hech kim xabardor bo'lmagani tufayli o'ziga ishonchi ortgan G. Asanovaning navbatdagi «o'lja»si «Kobalt» avtomashinasi uchun shartnoma tuzib, dastlabki badal uchun 8 million so'mdan ortiq pulni o'tkazgan, ammo avtoulov kechikkani uchun pulini qaytib olish niyatida yurgan N. Xolmetov bo'ldi. Unga to'langan pullarini S. Aliyev sotib olgan «Spark» avtomashinasi uchun o'tkazib turishga, so'ngra mablag'ni undan naqd pul shaklida olib berishiga ishontirdi. Pul mablag'ini qaytarib olishga umid qilgan N. Xolmetov ayolning bu so'zlariga chippa-chin ishondi. Guli esa uning pullarini boshqa bir mijoz – Z. Kamolovning bank plastik kartasiga o'tkazib yubordi. Keyin mijozning bank plastik kartasini aldov yo'li bilan qo'lga kiritib, undagi mablag'ga ega chiqdi.

«Qahramonimiz» birin-ketin shu tarzda yana 3 nafar mijozni chuv tushirdi.

«Qahramonimiz» birin-ketin shu tarzda yana 3 nafar mijozni chuv tushirdi.

Avtomashinasi uchun to'lovlar o'z muddatida to'lanayotganiga ishonchi komil bo'lgan S. Aliyev avvaliga hech qanday xavotir olmadi. Chunki unda «chek»lar bor edi. Barcha to'lovlarni to'lab bo'lganidan keyin avtomashinani o'z nomiga o'tkazish uchun ma'lumotnoma so'raganida G. Asanova turli bahonalarni ro'kach qilib, zarur hujjatlarni rasmiylashtirishni ortga sura boshladi. Lekin bu vaziyatdan ham chiqib keta oldi. Biroz muddat o'tib, go'yoki jamiyatning Toshkent shahridagi bosh idorasi tomonidan berilgan avtomashina to'lovi uchun hech qanday qarzi yo'q degan mazmundagi qalbaki ma'lumotnomani mijozning qo'liga tutqazdi.

S. Aliyevning xursandchiligi uzoqqa cho'zilmadi. Avtomashinani notarius orqali rasmiylashtirish davomida uning lizing to'lovi to'liq to'lanmagani ma'lum bo'ldi. Shundagina o'zining aldanganini tushungan fuqaro holat yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga ariza bilan murojaat qildi. Ko'p o'tmay, G. Asanovaga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atildi. Sud majlisida esa uning qilmishlari o'z isbotini topdi.

**Baxadir UZAQBAYEV,**
**podpolkovnik.**
**Azamat PIRNIYAZOV,**
**«Postda» muxbiri.**
*Qoraqalpog'iston Respublikasi.*

**Guliston shahrida yashovchi Abrorning (ismlar o'zgartirildi) ikki kundan beri yo'qligi to'g'risida xabar olindi. Jinoyat qidiruv bo'limi tezkor qidiruv ishlarini boshlab yubordi.**

# QOTIL VA KO'K TUGMA

Ma'lum bo'lishicha, Abror shaharning 4-mavzesida, «Do'stlik» kanalining o'ng qirg'og'idagi uylardan birida istiqomat qilgan. O'ziga tegishli «Nexia-3» mashinasida kirakashlik bilan shug'ullangan. Qidiruv ishlari boshlanganidan uch soat o'tar-o'tmas Abrorga tegishli avtomobil Guliston shahridagi dehqon bozori to'xtash joyidan topildi. Mashina eshiklari ochiq, hujjatlar va buyumlar yo'qolgan. Ekspert-kriminalistlar ishga tushdi. Barmoq izlari olindi. Afsuski, qon yoki zo'rlik ishlatilganiga oid hech bir dalil topilmadi. Faqatgina salon orqasida, oyoq ostida kichikroq ko'k tugma yotardi.

Qidiruvga qo'shimcha kuch tashlandi. Shahardagi taksi haydovchilari Abror shahar tashqarisiga buyurtma olib chiqib ketgani, kuni bilan ko'rinmaganini ma'lum qilishdi. So'ng ko'chalarga o'rnatilgan kuzatuv kameralari yozuvlari o'rganildi, Abror telefoni orqali kimlar bilan gaplashganini aniqlashga urinib ko'rildi. Unga tegishli avtomashina shu kuni Guliston, Yangiyer, Jizzax viloyatining Dashtobod shaharchasidagi kuzatuv kameralarida qayd etilgani aniqlandi. Ertalabki to'qqizlarda Dashtobodga qarab yo'l olgan. Kechki payt Guliston shahriga qaytgan. Afsuski, avtomobil salonida kimlar bo'lganini aniqlashning imkoni bo'lmadi.

Qidiruv ishlari qo'shni tumanlarga ko'chdi. Kirakashlardan biri Abrorning mashinasiga Yangiyer – Boyovut yo'lida ko'zi tushganini aytib qoldi.

Endi qotillik, bosqinchilik ehtimollari ko'rib chiqila boshlandi. Shu bois Boyovut – Yangiyer oralig'idagi kanalning bo'ylarini ham ko'rib chiqish zarur edi. Har ikkala qirg'oq bo'ylab qidiruv guruhlari ish boshladi. Sohil bo'ylab o'ng tomondan yo'lga chiqqan guruh a'zolari shundoqqina kanal va avtotrassa oralig'idagi yulg'unzorda qandaydir narsani ko'rib qolishdi. Borib ko'rishganida, u qidirilayotgan shaxs ekani ma'lum bo'ldi. Bo'ynida bo'g'ilganlik, badanida kuch ishlatilganini anglatuvchi izlar bor edi...

Barcha kuch jinoyatchini qidirishga qaratildi. Bu jarayonda Oqoltin tumanida istiqomat qilgan, muqaddam firibgarlik, o'g'irlik, tovlamachilik jinoyatlari bilan bir necha bor sudlangan Rahim ismli shaxs o'sha kuni Gulistonda o'ralashib yurgani aniqlandi. Tezkor guruh uni shaharning «Qarapchi» mahallasidagi uylardan biridan topishdi. Avvaliga hech narsani bilmasligini aytib turib oldi. Keyin unga topilgan ko'k tugma ko'rsatildi. Tugma Rahimning egnidagi kurtkaning yeng qismidan uzilib tushganini isbotlashga hojat qolmagandi.

...Voqea bunday bo'lgan. Rahim Zominga borib kelish uchun mashina kira qiladi. Abrorga kuni bilan yurishga to'g'ri kelishini aytib, 500 ming so'mga kelishishadi. Zomindagi qishloqlardan birida qoramol savdo qilmoqchi bo'ladi. Lekin u yerdagilar nasiyaga ko'nmaydi. Firibi o'tmagach, kira haqini berishga puli bo'lmagan Rahim qaytishda qabih reja tuzadi. Yangiyerga yetgach, rulni Boyovutga burishni so'rab, «Uyas» mahallasida mol boquvchilar bilan savdo qilib ko'rmoqchiligini aytadi. Abror rozi bo'ladi. Yo'lda ketayotib, kanal bo'yida bir daqiqaga



to'xtashni so'raydi va to'satdan haydovchiga tashlanib, arqoncha yordamida bo'g'ib o'ldiradi...

**Javohir RAVSHANOV,**
**Guliston shahar IIB huzuridagi Tergov bo'limi bo'linma boshlig'i, kapitan.**
*Sirdaryo viloyati.*

IIV rahbariyati, shaxsiy tarkibi va Faxriylar kengashi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist, iste'fodagi polkovnik

**Valijon TOSHMATOVning**

vafot etganligi munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga hamdardlik bildiradi.

IIV huzuridagi Tergov departamenti rahbariyati va shaxsiy tarkibi iste'fodagi polkovnik

**Asatilla EGAMBERDIYEVning**

vafot etganligi munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga hamdardlik bildiradi.

Farg'ona viloyati IIB rahbariyati, shaxsiy tarkibi va Faxriylar kengashi viloyat IIB ikkinchi mintaqaviy hudud Beshariq tumani IIB boshlig'i, podpolkovnik Sodirjon Abdullayevga volidai muhtaramasi

**SADDIXON ayaning**

vafoti munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor etadi.

*Маршруты духовности*

# ТОПРАК-КАЛА – ДРЕВНЯЯ КРЕПОСТЬ



**Городище площадью более 120 га расположено в Элликкалинском районе Республики Каракалпакстан, в 12 км от Бустона (27 км от г. Беруни) и является самой величественной и ценной среди других крепостей древнего Хорезма.**

Топрак-кала была резиденцией династии, правившей Хорезмом в 2–3 веках нашей эры. Обширный замок занимал площадь 500х350 м и имел вид правильного прямоугольника, вытянутого с севера на юг. Территория города была охвачена крепостными стенами с квадратными башнями, возведенными через каждые 10–12 м. Внутри стен проходили двухэтажные



оборонительные галереи. Нижняя галерея служила для скрытого перемещения и отдыха воинов, а верхняя была боевой. Отсюда через стреловидные бойницы велась оборона города. Высота стен – более 14 м. Для большего фортификационного эффекта предстенная территория превращалась в глубокие «карманы-ловушки» с плотным фланговым обстрелом. Достигалось это за счет выноса башен на расстояние почти 9 м от стены.

Характерным явлением тогдашней военной мысли было сооружение рвов перед крепостными стенами в качестве дополнительной преграды. Ров окружал городские стены со всех сторон и был устроен на расстоянии 15 м от стен. Ширина его составляла 16 м, а глубина достигала 3 м.

Единственный вход располагался в центре южной стены. Строители выделили вход в особое укрепление с проходом в виде коленчатого лабиринта.

Центральная широкая (до 10 м) парадная улица шла с севера на юг, к городским воротам и рассекала город надвое, а поперечная сетка улиц делила застройку на 10 кварталов, один из них был храмовым, остальные – жилыми. В каждом квартале



насчитывалось примерно 150–200 жилых и хозяйственных помещений.

Наиболее интересные сооружения располагались в северной части, которая занимала почти треть городской территории. Северо-восточный угол был отведен под базар или городскую площадь. Северо-западный – занимала цитадель, которая представляла собой укрепленный город площадью 3,2 га. В северо-западном углу располагался огромный трехбашенный царский дворец, сооруженный на кирпичной платформе 12-метровой высоты.

В пределах цитадели, у подножия платформы дворца археологи обнаружили храм огня. В центральном корпусе дворца располагалось множество различных помещений. Многие комнаты были украшены настенными росписями и глиняной скульптурой.

Рядом с крепостью, в те времена окруженной плодоносящими виноградниками и возделанными полями, располагалась загородная резиденция и охотничий парк за квадратной оградой.

Топрак-кала была сложена из миллионов крупных кирпичных блоков. Замки древнего Хорезма строились без применения камня, так как в окрестностях не было известняка и гранита, а древесина тугайных зарослей не подходила для производства бревен и досок. Но хорезмийцы обладали уникальными строительными секретами, позволявшими возводить очень прочные сооружения из сырцовых кирпичей и глины. Мелкие камни, подобранные в пустыне, служили лишь укрепляющей прослойкой в кладке, а речной песок, впитывающий дождевую воду, обеспечивал сухость внутренних помещений.

# ГОРОСКОП НА НЕДЕЛЮ

## (с 20 по 26 марта)



**Овен.** Период обновления. Если в начале недели вы чувствовали внутренние или внешние ограничения, то уже с четверга путь для любых начинаний будет открыт. Также эта неделя подходит для коррекции внешности, смены стиля одежды, прически, записи на косметические и спа-процедуры.



**Телец.** Вам захочется отдохнуть от насыщенной встречами и общением жизни. Возрастет потребность в спокойствии и уединении. В это время можно решать накопившиеся проблемы, обдумывать свою жизнь и будущие планы, заниматься любимыми делами.



**Близнецы.** Всю неделю будет сопутствовать удача. Для многих это время исполнения заветных желаний, возможно, даже не придется прикладывать больших усилий: внешние обстоятельства будут складываться в вашу пользу. В целом появится ощущение появления чего-то нового и позитивного.



**Рак.** Возможно, вы познакомитесь с влиятельным человеком, от которого во многом будет зависеть ваша профессиональная судьба. Ставьте перед собой масштабные задачи и прилагайте максимум усилий для их исполнения. Не сделав это, вы не сможете узнать, на что способны в действительности.



**Лев.** Намечается спокойная неделя. Уже со среды вы почувствуете, что жизнь становится более размеренной, ощутите тягу к знаниям, стремление расширить кругозор, усовершенствовать профессиональные навыки. Не исключено, что познакомитесь с человеком, который сможет многому вас научить.



**Дева.** Возможно, вы станете свидетелями или участниками какого-то экстремального события. Будьте осторожнее при обращении с колющими и режущими предметами. Что касается финансов, то в этот период они могут возрасти благодаря успешной деятельности членов вашей семьи.



**Весы.** В начале недели придется много внимания уделять вопросам укрепления здоровья. Это благоприятное время для профилактических процедур: закаливания, занятий спортом в соответствии с рекомендациями врачей. С середины и до конца недели актуальной станет тема взаимоотношений в семье.



**Скорпион.** Вы будете настроены на творчество и сможете многого добиться на этой стезе. Если в начале недели вас посетило много идей, то ближе к выходным представится удобный случай воплотить их в жизнь. Также это благоприятный период для того, чтобы упорядочить свой образ жизни.



**Стрелец.** Ваше внимание в основном будет сосредоточено на семье и домашних хлопотах. Отношения с близкими сложатся теплые и доброжелательные: сможете успешно решать совместные дела. Уделите внимание представителям старшего поколения: сейчас им особенно важно почувствовать вашу любовь.



**Козерог.** Станет актуальным вопрос благоустройства жилища. Возможно, вы захотите что-то поменять в расстановке мебели или приобрести новую бытовую технику. Основные усилия рекомендуется направить на реализацию замыслов. Домочадцы с энтузиазмом встретят все ваши предложения.



**Водолей.** Будет интересовать тема денежных накоплений и их увеличения. Вы весьма преуспеете на данном поприще. Может возрасти число звонков от друзей и знакомых с предложениями о встрече. Вторая половина недели подходит для путешествий, которые сулят много приятного.



**Рыбы.** От вас потребуется умение находить эффективные решения практических вопросов. Возможно, придется много времени уделять работе, совершенствовать профессиональные навыки. Благодаря проявленному рвению и трудолюбию вам удастся увеличить свои доходы.

Postda
На посту

*Sport*

# MURODJON YO‘LDOSHEV – OLTIN MEDAL SOHIBI

Sportning turli yo‘nalishlarida yurtimiz yoshlari erishayotgan yutuqlar haqidagi xushxabarlarni deyarli har kuni eshityapmiz. Bu kelajagimiz egalariga qaratilayotgan katta e’tiborning, yaratilayotgan shart-sharoitlarning mevasidir.

Yaqinda poytaxtimizdagi «Yunusobod» sport majmuasida dzyudo bo‘yicha «Katta dubulg‘a» turniri bo‘lib o‘tdi. Unda dunyoning ellikka yaqin mamlakatidan tajribali sportchilar qatnashdi. Hamyurtlarimiz mazkur turnirda 3 ta oltin, 1 ta kumush va 8 ta bronza medalni qo‘lga kiritib, umumjamoa hisobida ikkinchi o‘rinni egalladilar. Quvonarlisi, g‘oliblar safida IIV huzuridagi JIED THO xodimi, safdor Murodjon Yo‘ldoshev ham bor. U 73 kg vazn toifasida barcha raqiblaridan ustunligini namoyish qilib, oltin medal sohibiga aylandi. Shuningdek, sportchimiz «Parij–2024» Olimpiadasi yo‘lidagi qimmatli 1000 reyting ochkosini ham qo‘lga kiritdi. Hamkasbimizni bu g‘alaba bilan muborakbod etib, kelgusida ham ulkan zafarlar quchishini tilaymiz.

**O‘z muxbirimiz.**






# «YANGI NAFAS» MARAFONI

Buxoro viloyatida Navro‘z bayramiga bag‘ishlab «Bir Vatanda, bir vaqtda, bir masofada va bir maqsad sari yuguramiz» shiori ostida «Yangi nafas» ommaviy yugurish marafoni o‘tkazildi. Marafon Buxoro shahridagi «Sitora» istirohat bog‘i oldidan to «Ark» qo‘rg‘oniga qadar bo‘lgan hududgacha davom etdi.

Mazkur musobaqa aholi va yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni maqsad qilgani bilan ahamiyatli bo‘ldi. Marafonda aholi, yoshlar, sektorlar, davlat tashkilot va idoralari rahbarlari, xodimlari, keng jamoatchilik faol ishtirok etdi. Jarayonlarda marafon ishtirokchilari hamda keng jamoatchilik va yo‘l harakati qatnashchilarining xavfsizligini ta’minlash maqsadida ichki ishlar hamda boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari sergaklik bilan o‘z xizmat burchlarini olib bordilar.

Yakunda g‘oliblar medal, diplom va qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandi. Shuningdek, bu borada munosib hissa qo‘shgan osoyishtalik posbonlari tashakkurnoma va esdalik sovg‘alari bilan rag‘batlantirildi.

**O‘z muxbirimiz.**





MUASSIS:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –
polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o‘rinbosarlari –
mayor Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas’ul kotiblar –
Jahongir SHAROFBOYEV
Erkin SATTOROV

Navbatchilar –
Sherzod ABDUSAMADOV
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –
Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:
71-231-33-88;
**Faks:** 71-231-40-05.

**Obuna masalalari bo‘yicha:**
71-231-38-74;
97-420-89-24

**Web-site:** www.postda.uz
**E-mail:** info@postda.uz

ISSN 2010-5355

Tahririyat hisob raqami 20210000600447980001.
Bank kodi 01037.
ATB «Qishloqqurilishbank» Sergeli bank xizmatlari ofisi.
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.
Nashrimizdan ko‘chirib bosilganda manba ko‘rsatilishi shart.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

«O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili:
Alisher Navoiy ko‘chasi 30-uy.

Gazeta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Buyurtma №V-5434.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma taboq. 50745 nusxada chop etildi.
**Obuna raqamlari:**
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

**MANZILIMIZ:**
**100070, Toshkent shahri, Shota Rustaveli 1-berk ko‘chasi 9-uy.**